

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
O'ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

Qo'lyozma huquqida

Safarova Shahlola Amin qizining
“Xamsa” dostonlari tarkibidagi hamd boblarning qiyosiy tahlili

5A220100 – o'zbek filologiyasi bakalavri darajasini olish uchun yozilgan
BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: filologiya fanlari
nomzodi, dotsent Zilola Amonova
Qodirovna

BUXORO-2020

KIRISH

Reja:

I BOB. Hamd boblar yaratish – sharq mumtoz adabiyotiga xos an’ana

- 1.1. Kitobatchilik tarixi va unda hamd boblarning o’rni
- 1.2. Sharq adabiyotida “xamsachilik” va unda hamd boblarning yaratilishi

II BOB. “Xamsa” dostonlari va ularda hamd boblarning o’rni

- 2.1. “Hayrat ul-abror”dagi hamd boblarning tahlili
- 2.2. “Farhod va Shirin”dagi hamd boblarning o’ziga xos xususiyati
- 2.3. “Layli va Majnun”da hamd xarakterdagi baytlar tahlili
- 2.4. “Sabba’i Sayyor”da hamd
- 2.5. “Saddi Iskandariy”dagi hamd boblarning g’oyaviy-badiiy tahlili

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Adabiy merosimiz sermazmun va badiiy rang - barangligi bilan asrlar davomida o'z badiiy qadr - qimmatini saqlab kelmoqda. Shuningdek, mana shu adabiy merosimiz namunalari mutaxassislar tomonidan imkoniyat darajasida o'rganilmoqda. Zotan, tarix xalq ma'naviyatining asosidir. O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, har bir sohaga shu jumladan, adabiyotga ham alohida e'tibor qaratildi. Shu aytgan fikrlarimizning dalili sifatida Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev "Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir. Aynan ta'lim va ma'rifat bashariyat faravonligining asosiy omillaridan hisoblanadi, insonlarni ezgulikka da'vat etadi, saxovatli, sabr- qanoatli bo'lishga undaydi. Muqaddas islom dinimiz bizga aynan shuni o'rgatadi. Bunday yondashuv davr talabidir"¹, - deya ta'kidlagan fikrlarini aytishimiz mumkin. Mumtoz adabiy merosimizni, adabiyotshunos olimlar ta'kidlaganidek, davrdan uzoqlashganligimiz sari uni tushunish murakkablashadi. Shu bois tarixdan uzoqlashmagan holda insonni tarbiyalab borish zarur. Tarix millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda. Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib, yangi fuqorolik ongini shakllantirmoqda. Shuningdek, axloqiy tarbiya va ibrat manbayiga aylanmoqda. Ushbu bitiruv malakaviy ishi ham adabiyotshunoslik tarixi bilan bog'langan holda olib borilgan. Jumladan, Navoiy ijodidagi **asosiy g'oyalar, timsollar olami bir muncha kengroq o'rganilganidan xabarimiz** bor. Shu nuqtayi nazardan yana bir bora qayta ko'riladigan bo'lsa, ular orasidagi mutanosiblik va yakdillikka xulosa yasalgan bo'lar edi. Shu bois shoir "Xamsa"si tarkibidagi dostonlarning hamd boblarini g'oyaviy-badiiy tahlil qilish va hamd

¹Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. -Т.: Ўзбекистон.2017-й, 27-28бет.

boblar mazmun mohiyati bilan dostonlar syujet o'rtasidagi mutanosiblikni o'rganish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Demak, ona tilimiz taraqqiyotida, qolaversa, bugungi kun avlodi tarbiyasida Hazrat Alisher Navoiyning asarlari muhim manba vazifasini o'tar ekan, biroq shuni ham ta'kidlash kerakki, hali bu borada o'z yechimini kutayotgan muammolar ham kam emas. Ayni shu muammolar sirasiga biz, Hazrat Navoiy she'riyati hamda "Xamsa" dostonlari tarkibidagi hamd qismlarning g'oyaviy- badiiy tahlilini yanada chuqurroq o'rganish, qolaversa, ularning badiiy nafosatini ta'min etgan omillarni aniqlash kabilarni kiritamizki, bularning barchasi ishimizning dolzarbligini belgilovchi xususiyatlar hisoblanadi.

Mavzuning o'rganilish darajasi: Hozirda ming yillik o'z tarixiga ega adabiy merosimizning noyob durdonalari adabiyotshunos olim va olimalar tomonidan dolzarb masala sifatida o'rganib kelinmoqda. Adabiyotshunoslardan Oybek, I.Sulton, R.Vohidov, A.Hayitmetov, H.Sulaymonov, Y.Is'hoqov, D.Yusupova, Sh. Sirojiddinov, N. Mallayev, A. Abdug'afurov, A. Rustamov, V.Zohidov, B. Valixo'jayev, R. Orzibekov, I. Haqqulov, N. Komilov, Q.Tohirov, S.G'aniyeva, M. Muhiddinov, D.Salohiy, Erkin Vohidovlarning qator ilmiy ishlarida, maqolalarida adabiy merosimizning qimmatbaho durdonalari tahlil qilib o'rganilgan va hozirgi kunda ham davom etmoqda. Mana shu adabiyotshunos olimlar tomonidan tahlil etilgan asarlar hozirgi kunda adabiyotshunosligimizning katta yutuqlaridandir. Mazkur ilmiy asarlar orqali uzoq davrlarga taalluqli asarlarimiz va ijodkorlar haqida umumiy ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

Ishning maqsadi va vazifalari:

Hazrat Alisher Navoiy "Xamsa"si tarkibidagi beshta dostonning hamd qismlarini g'oyaviy-badiiy tahlil qilib, o'rganish ilmiy ishimizning bosh maqsadidir. Ana shu maqsaddan kelib chiqib mazkur ish oldiga yana quyidagi vazifalar qo'yildi:

- Sharq adabiyotida xamsachilik an'anasi va ularda hamd boblarga bo'lgan munosabatni o'rganish;

- Navoiy “Xamsa”sidagi hamd boblarda keltirilgan Qur’oni Karim **oyatlari va Hadisi Shariflarni bayt mazmunidan kelib chiqib tahlil qilish;**
- •“Hayrat ul abror” dostonidagi hamd boblarni tahlil etish;
“Farhod va Shirin” dostonidagi hamd boblarni o`rganish;
- “Layli va Majnun”dostonidagi hamd baytlarni tahlil etib o`rganish;
- “Sabbai Sayyor” da hamd baytlar keltirilgan o`rinlarni tahlil etish;
- “Xamsa”ning xotima dostoni “Saddi Iskandariy”da berilgan hamd baytlarni g’oyaviy-badiiy tahlil qilib, **asar g’oyasi bilan bog`liq o`rinlarini ko`rsatib berish.**

Ishning ilmiy yangiligi: “Xamsa” tarkibidagi dostonlarda keltirilgan hamd boblar alohida tahlil doirasiga tortildi. Sharq adabiyotida xamsachilik an’anasi va ularda hamd boblarning o’rni masalasiga ham e’tibor qaratildi. Bu borada hazrat Navoiyning an’ana va novatorligi **to`g`risida mulohazalar bayon etildi.**

Mavzuning obyekti (manbai):**Alisher Navoiyning ijodiy merosida o`ziga xos o`ringa ega bo`lgan “Xamsa” asari va uning tarkibidagi besh dostonning hamd boblarini o`rganishda shoirning 20 tomlik mukammal asarlari to`plamining 7-8-9-10-11 tomlari tadqiqot manbai sifatida olindi.**

Mavzuning nazariy va amaliy qimmat: Alisher Navoiy ijodiy merosida salmoqli o`ringa ega bo`lgan “Xamsa” asari va undagi besh doston tarkibida keltirilgan hamd boblarni badiiy timsollar orqali maxsus o`rganish alohida bir olam deb qaraladi. Navoiy **ijodida** qo`llanilgan har bir so`z kitobxonda o`zgacha bir she’riyatga bo`lgan muhabbat tuyg`ularini uyg`otadi. Shoir “Xamsa”sidagi dostonlar tarkibidagi hamd boblarda ollohning cheksiz qudrati va bandalariga hamisha marhamat qilishga tayyor ekanligi, o`z mehri bilan xuddi quyosh nuri kabi olamni nurga to`ldirishi haqida bayon qilingan fikr-mulohazalar **o`zbek mumtoz adabiyoti muammolari, jumladan, Alisher Navoiy ijodiga qiziquvchilar, oliy o`quv yurti talabalari, o`rta umumta’lim maktab o`uvchilari, akademik litsey talabalariga qo`l keladi. Ma’ruza, amaliy va**

seminar mashg'ulotlarida uning mazmun va natijalaridan amaliy foydalanish mumkin.

Ishning tuzilish va tarkibi: Bitiruv malakaviy ishi kirish, 2 bob 7 fasl, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. HAMD BOBLAR YARATISH – SHARQ MUMTOZ ADABIYOTIGA XOS AN'ANA

1.1. Kitobatchilik tarixi va unda hamd boblarning o'rni

Insoniyat rivojida aql-idrok va ruhiy barkamollik vositasi bo'lgan kitob buyuk mo'jiza. Sharq xalqlari azal-azaldan ilmga, kitobga chanqoq. Shu bois yurtimizda kitobatchilik qadimdan rivojlanib kelgan. Kitobat san'ati (arab. kataba-yozish, yozmoq so'zidan) – qo'lyozma kitoblarni yaratish va ziynatlash**demakdir**. Kitobat san'ati bir qancha qo'li gul hunarmandlar tomonidan bajariladigan murakkab jarayonlarni o'z ichiga oladi. Jumladan bular- qog'ozrez, xattot (kitob va risolalarni ko'chiruvchi kotib), lavvoh (lavh yasovchi usta), muzahhib (zarhal beruvchi mo'yqalam sohibi), musavvir (rassom), sahhof (muqovasoz)lardan iborat jamoadir. Xattotlar matnni qog'ozga yozishda mistar (maxsus qog'oz-karton) ustiga ip tortib uning izini matn yoziladigan qog'ozga tushirib olganlaridan so'ng matn yozishga kirishganlar. Matnni qanday joylashtirish xattotning mahoratiga bog'liq bo'lgan. Yozilgan matnni lavvoh hoshiyali qog'ozga yelimlagan, uning ustidan jadvalkash turli-tuman ranglarda chiziqlar tortib, matnni jadvalga olgan. Keyin esa muzahhib oltin suvi va turli ranglar bilan qo'lyozmani ziynatlagan. Bunda muzahhiblar “shams”, “lavha”, “sarlavha”, “zarvaraq”, “xotima” kabi naqshlardan foydalanganlar. Bo'sh qolgan joylarga musavvirlar miniatyura ishlaganlar. Ular rasmlarni turli ranglarda, oltin, kumush ishlatgan holda bo'yaganlar. Nihoyat, muqovachilar qo'lyozmaga naqsh va turli xil bo'yoqlar bilan jilo berganlar, oltin suvlari yurgizilgan charm muqovaga biriktirganlar. Muqovaning qopqog'i ko'pincha bosma, o'yma, qadama naqshlar, yorqin rasmlar bilan bezatilgan kumush yoki yog'ochdan bo'lgan. Temuriylar hukmronligi davrida kitobat san'ati yuksak pag'onaga ko'tarildi. Kitobat va xattotlik san'ati XIV-XV asrlarda yangi taraqqiyaot bosqichiga **erishganini ko'rish mumkin**. Mohir xattotlardan biri Sultonali Mashhadiy Nizomiy Ganjaviy, Farididdin Attor, Hofiz Sheroziy, Sa'diy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqa ijodkorlarning asarlarini mahorat bilan ko'chirgan. Sultonali Mashhadiy tomonidan ko'chirilgan 50 dan ziyod kitob

hozirgi kunga qadar yetib kelgan. XV asrning ikkinchi yarmida Hirotida kitobat san'ati yanada rivoj topdi. Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy saroy kutubxonasini nodir asarlar bilan boyitishga g'amxo'rlik qilganlar. Qo'qon xonligida ham kitobat san'atining mohir ustalari bo'lgan. XX asrning 70-80-yillariga kelib A.Madramov, Sh.Salimov, Sh.Muhammadjonov va boshqa olimlarning sa'y-harakatlari natijasi o'laroq kitobat san'ati qayta tiklandi. Alisher Navoiy kitob san'ati tarixida o'ziga xos davrni boshlab berdi. Uning bevosita ko'magi bilan Behzod, Sulton Ali Mashhadiy, shoh Muzaffar kabi o'nlab kitob san'atida mohir xattotlar yetishib chiqdi. Bu davrda yaratilgan barcha asarlar Xudoning madhi-hamd, munojot-ollohga iltijo, Muhammad payg'ambar ta'rifi-na't kabi maxsus boblardan tashkil topgan. "Qur'oni Karim"dan andoza olgan holda, asarlarning bunday an'anaga muvofiq tarzda boshlanishi bu davr asarlari uchun xosdir.² "Xamsa" dostonlarining har biri muayyan diniy muqaddima bilan boshlanib, bu ollohga hamd va munojot, rasulullohga na'tni qamrab oladi. Bunga musulmon sharqi adabiyotidagi an'ana deb qaralsa-da, aslida mazkur kirish so'zlari shoirning e'tiqodi, ollohga bo'lgan muhabbati, hayot haqidagi qarashlarini aks ettirishi bilan alohida ahamiyatga molik. Navoiyning ollohga, payg'ambarimizga bag'ishlangan hamd va na't ruhidagi asarlarini tahlil qilganimizda ularda avliyo shoirning ulug'vor olami, bukilmas irodasi, mustahkam iymoni namoyon bo'lishini ko'ramiz. Xususan, "Xamsa" dostonlaridagi munojotlarda shoir Olloh taoloning rahmati va mag'firatiga muhtoj ekanligini, Xaqning lutfidan hech qachon umid uzmasligini samimiy, chinakam so'zlar bilan bayon qiladi. Alisher Navoiy yuksak e'tiqodli inson bo'lib, hech qachon ollohning zikrini unutmagan. Xaqni sevgan, musulmon o'z robbisiga qanday iltijo bilan o'tinsa, xuddi shunday yuksak maqomda o'z parvardigoriga tobelik va qullik izhor etgan. Demak, sharq adabiyotida asarlarni hamd, na't va munojot boblar bilan boshlanish o'ziga xos an'ana bo'laganki, Navoiy ham shu an'anani izchil davom ettirdi.

²Шухрат Сирождидинов. Сохиба Умарова. Ўзбек матншунослиги қирралари. Т.: Академнашр, 2015. - Б. 18.

1.2. Sharq adabiyotida “xamsachilik” va unda hamd boblarning yaratilishi

Xamsa – bu Yaqin va O’rta Sharq xalqlari klassik adabiyotining tarixiy, o’ta murakkab, besh dostonidan tashkil topadigan adabiy janridir. “Xamsa” “beshlik” degan ma’noni anglatadi. Odatda xamsaning barcha dostonlari she’riy masnaviy shaklda yozilgan. An’anaga ko’ra, xamsadagi birinchi dostonning asosini falsafiy-axloqiy masalalar tashkil etgan. Ikkinchi va uchinchi dostonlar sevgi orqali aks ettirilgan ijtimoiy-ma’naviy masalalarni yorituvchi mavzu asosida uyushgan. To’rtinchi doston sarguzasht asar bo’lib, unda ijodkorning ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy-siyosiy va falsafiy qarashlari aks etgan. Sharqda badiiy qimmati turlicha bo’lgan ellikdan ortiq xamsalar vujudga kelgan. Xamsaning alohida dostonlariga javoblar ham yozilgan. Lekin bizgacha bu asarlarning hammasi ham yetib kelgani yo’q. Xamsa dostonlaridan faqat birigagina javob yozib, yuksak darajada shuhrat qozongan ijodkorlar ham bo’lgan. Masalan: Fuzuliy “Layli va Majnun”. Xamsada eng ko’p dostonlar “Layli va Majnun” mavzuida yaratilgan. Keyingi o’rinlarda tegishli ravishda “Xusrav va Shirin”, “Mahzan **ulas**ror”, “Iskandarnoma”, “Haft paykar” mavzuidagi dostonlar turadi. Xamsanavislar o’z asarlarida epik romanik, qahramonlik yoki sufiylik mavzuini birinchi o’ringa qo’yganlar.

Xamsa janrida ijod etishni ulug’ ozarbayjon shoiri va mutaffakkiri Nizomiy Ganjaviy boshlab bergan. Ganjaviy o’z xamsasini 1141-1201-yillar oralig’ida yaratgan. **Birinchi** doston shoirning hayotiy kuzatishlari asosidagi falsafiy, ijtimoiy va axloqiy qarashlarining badiiy majmuasi deb aytish mumkin. Asar muqaddimasida xudoning yakkayu-yagonaligi haqidagi munojotlar, payg’ambarlar haqidagi **na’t** bilan boshlanadi. Shoir asarni yozishda Qur’on suralariga murojaat qilib, xadislarni asos qilib oladi. “Xusrav va Shirin” dostonining muqaddimasi Xudo va payg’ambarlar nomiga yozilgan hamd-sanolardan iborat. “Layli va Majnun”da ishq muhabbat kuylanadi. 1196-yilda shoh Bahrom haqida “Haft paykar” (“Yetti go’zal”) bitildi. 1196-1201-yillarda “Iskandarnoma” yaratildi. Iskandar xalq tafakkurida rahnamo va madadkor sifatida Xizr bilan yonma-yon tilga olinadi. Iskandarning harbiy yurishlari mamlakatni aql idroki bilan boshqarishi hikoya

qilinadi. Shunday qilib besh doston dunyo yuzini ko'radi. Ganjaviy bu dostonlarni jamlab, bitta nom bilan, ya'ni "Panj ganj" ("Besh xazina") deb nomlaydi va xamsa janriga asos soladi.

Nizomiy "Xamsa"sini fors tilida yozgan. Davrlar o'tishi bilan muayyan ijtimoiy-siyosiy sharoitda belgilangan mavzu, syujet, kompozitsiya, obrazlarga ega bo'lgan "Xamsa" dostonlarining mazmuni, tarkibi o'zgarib borgan. Nizomiydan yuz yildan so'ng asli shahrisabzlik turkiy urug' avlodidan bo'lgan Husrav Dehlaviy (1253-1325) o'zining "Xamsa"sini 1299-1301 yillarda yozib tugalladi. U "Matla' ul-anvor" ("Nurlarning boshlanmasi"), "Shirin va Xusrav", "Layli va Majnun", "Hasht behisht" ("Sakkiz jannat"), "Oynayi Iskandariy" ("Iskandarning oynasi") dostonlarini yaratib, Nizomiy ishini davom ettirdi va natijada adabiyotshunoslikda xamsachilik an'anasi paydo bo'ldi.

Keying yirik xamsanavis shoir Abdurahmon Jomiy . U o'zining yetti dostondan iborat to'plamiga "Haft avrang" ("Yetti taxt") deb nom qo'yar ekan, Temuriylar sulolasidan yetti shoh (Amir Temur, Xalil Sulton, Shohrux, Ulug'bek, Abulqosim Bobur, Abu Said, Mirzo Husayn Boyqaro)ni ko'zda tutadi. Sharq adabiyotidagi xamsachilik an'analari asosida yozilgan bu dostonlardan "Silsilatuz-zahab", "Tuhfat ul-ahror", "Suhbat ul-abror" g'oyaviy tematik jihatdan falsafiy-axloqiy yo'nalishda, janr e'tibori bilan pandnoma tipida bo'lib, o'z davrining eng dolzarb masalalariga bag'ishlangan edi. "Yusuf va Zulayho", "Layli va Majnun", "Salamon va Absol", "Xiradnomai Iskandariy" dostonlarida esa shoir an'anaviy syujetlarning yangicha talqinlarini beradi.

Alisher Navoiy turkiy (o'zbek) tilida "Hayrat ulabror", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab'ai sayyor", "Saddi Iskandariy" nomlari bilan besh doston – "Xamsa" yaratdi. Navoiy xamsachilik taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shgan va xamsani turkiy xalqlar adabiyotida Nizomiy darajasiga ko'targan. Bunda Navoiy o'zigacha bo'lgan buyuk xamsanavislar – Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiylarni o'ziga ustoz deb bildi va ularning xamsasidagi g'oyaviy-badiiy an'analarni mahorat bilan rivojlantirdi. Xamsachilikni yuqori pag'onaga olib chiqdi. Navoiy "Xamsa"da an'anaviy obrazlar hisoblangan Farhod, Shirin, Dilorom,

Layli, Majnun, shohlardan Xusrav, Bahrom, Iskandar obrazlarini yangicha, o'z davri nuqtayi nazaridan talqin etdi. Navoiy "Xamsa"si ayni vaqtda adabiy tilning boyligi, mukammal va rang-barangligini ham namoyish etadi.

Ma'lumki, hamd arabcha ulug'lanish, ta'rif, tavsif, madh degan ma'noni anglatadi. Sharq mumtoz adabiyotida asarlarda Allohni madh etuvchi hamdlar ko'p yaratilgan. Jumladan, dostonlarning muqaddimasida ham maxsus bob sifatida keltirilgan. An'anaga muvofiq, asar tarkibidagi barcha dostonlar hamd qism bilan boshlangan. Yuqorida nomlari sanab o'tilgan barcha xamsanavislar o'z asarlarini ollohning nomini ulug'lash va uning kuch-qudratini madh etish bilan boshlaganlar. Xususan, Alisher Navoiy ham o'zining "Xamsa"sida hamdning go'zal namunalarini keltirgan.

II BOB. “XAMSA” DOSTONLARI VA ULARDA HAMD BOBLARNING O’RNI.

2.1. “Hayrat ul-abror”dagi hamd boblarning tahlili

Shoir “Xamsa” tarkibidagi har bir dostonni hamd, munojot, na’t boblari bilan boshlagan. Faqat “Hayratul abror” dostonini dastlab basmalayi sharif ta’rifi bilan boshlagan. So’ng hamd bobi berilgan. Sababi “Xamsa” besh dostondan iborat bo’lsa-da, yaxlit bir asar sanaladi. Asarning ibtido dostoni bo’lmish “Hayratul abror” basmalayi sharif bilan boshlanishi, albatta, shart edi. Chunki Hazrati payg‘ambarimiz hadislaridan birida: “E’tiborli har bir ish “bismillah” bilan boshlanmas ekan, uning oxiri kesikdir”, ya’ni barakasi bo‘lmaydi, oxiriga etmaydi, deb qat’iy ta’kidlaganlar.³ Modomiki shunday ekan, Alisher Navoiy buyuk “Xamsa” asarining ilk dostoni “Hayrat ul-abror”ni ham “Bismillohir Rahmonir Rahiym” bilan boshlashi tabiiy bir hol edi. **Basmalayi sharifdan so’ng, hamd bobi keladi:**

Hamd angakim vojibi bizzot erur,

Homid aning zotig’a zarrot erur.

Hamd (1.maqtov, madh 2.shukr, tashakkur) angakim (Ollohga murojaat) vojib(bajarilishi majburiy, shart) bizzot (shaxsan, aslida) erur. Homid aning (Ollohga murojaat) zot (1.sohib, shaxs 2.mohiyat, bir narsaning asli)iga zarrot (zarralar, mayda bo’laklar) erur. Aslida har bir ishga qo’l urishdan oldin, Ollohga shukrlar aytish, uni madh etish shart va zarurdir. Ammo bu ishni shart va zarurligi uchun qilma, qalbingda Ollohga ishonch va e’tiqod borligi uchun qil. Chunki Ollohnin nomi bilan boshlangan har bir ish xayrli bo’ladi. Homid uning (Olloh nazarda tutilmoqda) mohiyatini anglash yo’lida kichkina zarradir. Ollohnin anglab yetish uchun bu dunyo ilmlari kamlik qiladi.

Vahdati zotig’a quyoshdek tonuq,

Zarradin afzunu quyoshdin yoruq.

³Қуръони карим.Ўзбекча изоҳли таржима. Т.:1992. – Б.501.

Vahdat (birlik, yakka-yagonalik, tanholik) zot (1.sohib, shaxs 2.mohiyat, bir narsaning asli)iga quyoshdek tonuq (guvoh, shohid). Zarra eng mayda bo'lak)dan afzun (ortiq, ziyoda, ko'p)u quyoshdan yoruq (nurli, nurafshon). Sening (Ollohga murojaat) zotingni yakkayu yagonaligiga quyosh guvohdir, chunki uning makoni ham sen kabi osmondadir.⁴ Sening zoting eng mayda bo'lakdan ortiq, quyoshdan ham nurlidir.

Jism sipehrini masir etguchi,

Ruh quyoshini munir etguchi.

Jism (gavda, jasad) sipehr (osmon, osmon gumbazi, falak)ini masir (sayrgoh, sayr qilinadigan joy) etguchi, ruh (yuz, bet) quyoshini munir (nur beruvchi, yorituvchi, porloq) etguchi. Ey (Ollohga murojaat) osmonning gavdasini sayrgoh, quyoshning yuzini olamni yorituvchi, porloq qilib yaratgan zot sen har narsaga qodirsan, holiq yaratguvchisan, yo'qdan bor qilguvchisan.⁵ Sening qudrating sabab osmon sayr qilib yuruvchi, quyosh nur taratuvchi bo'ldi.

Gulshani firuzani chekkan baland,

Gullaridin mehrni guldasta band.

Gulshani firuza (ko'm-ko'k osmon chamani)ni baland chekkan (tuzmoq, yaratmoq). Gullaridan mehr (quyosh, oftob)ni guldasta band (1.gulni dastalab bog'lovchi 2.guldasta). Ey (Ollohga murojaat) osmonning ko'm-ko'k chamanini hamma narsadan baland qilib yaratgan zot, bu chamanning gullaridan quyoshga guldasta tutding.

Har sori anjum gulikim ochilib,

Ko'kka bu guldastasidin sochilib.

Har sori (har taraf) anjum (yulduzlar) gulikim ochilib, ko'kka bu guldastasidan sochilib. Har tarafda yulduzlar xuddi gullar kabi ochilgan. Bu guldastadagi gullar esa

⁴Alisher Navoiy .Hayrat ul –abror. Toshkent: G'afur G'ulom, 2006. – 13-b.`

⁵Қуръони карим. Ўзбекча изоҳли таржима. Т.:1992. – Б.127-128.

ko'kka sochilgan. Osmonda mitti yulduzchalarning sochilib, o'zidan nur taratishi, bog'da gullarning ochilishiga qiyoslangan. Baytda tashbeh san'atidan unumli foydalanilgan.

Mintaqa birla falaki lojuvard,

Sun'i bisotida iki taxta nard.

Mintaqa (doira:yerning quruqlik qismi) bilan falaki lojuvard (ko'm-ko'k osmon), sun'i (yasash, yaratish, qudrat) bisotida ikki taxta nard. Sen (Ollohga murojaat) yer yuzini va ko'm-ko'k osmonni yaratding. Bunday qudratga yolg'iz o'zing qodirsan. Yer va osmon sening yaratilqlaring ichida nardning ikki taxta (nard o'yinini o'ynash uchun kerak bo'ladigan taxta doskaning ikki tomoni)dir.

Solmoq uchun tosi sipehr ichra shayn,

Oyu quyoshdin qilibon Ka'batayn.

Sipehr (osmon, osmon gumbazi, falak)ning tos (ichi chuqur lagan, tog'ora)iga shayn (kamchilik, nuqson, dog') solish uchun, oy va quyoshni ka'batayn (1.ikki ka'ba: Makka va Quddusdagi 2.nard o'yinidagi ikki so'ngak). Osmonning chuqur laganiga nuqson, dog' qilish uchun, oy va quyoshni nard o'yinidagi ikki tosh qilib yaratding. Ushbu bayt to'laligicha majoziy ma'noda yozilgan. Sen (Ollohga murojaat) osmonning tiniq va go'zal yuzida dog' bo'lishini xohlading, shuning uchun ham oy va quyoshni osmonning yuziga qadab qo'yding.

Taxta kelib charxi munaqqash anga,

Burj hisobidin iki shash anga.

Taxta kelib charx (osmon, ko'k)i munaqqash (naqshlangan, bezatilgan) anga, burj(quyoshning yillik doirasidagi 12 nuqtaning har biri) hisobidan iki shash (1.ikki oltilik 2.nardda qo'li ustunlik). Osmonning taxtasi oy va quyosh bilan bezatilgan. Quyoshning 12 ta nuqtasi hisobda 2 ta oltilikka to'g'ri keladi.

Tun kun ila muhra namudorliq,

Anjum ila taxta sadafkorliq.

Tun bilan kun muhra (1.yumaloq narsa, soqqa 2.biror narsaga bosilgan tamg'a, naqsh) namudorliq (ko'rinarli, ko'rinib turgan). Anjum (yulduzlar) bilan bu taxta sadafkorliq (sadafterilgan)dek. Tun va kun taxtaning yuzidagi ko'rinib turgan naqshdirlar. Yulduzlar esa taxtani ziynatlab turgan sadaflardir.

Daxrda har naqshi savobu qusur,

Borchasi bu narddin aylab zuhur.

Daxr (dunyo, olam)da har naqshi savob (yaxshi ish uchun olinadigan mukofot), qusur (kamchilik, nuqson). Barchasi bu narddan aylab zuhur (paydo bo'lish, ko'rinish). Dunyodagi jamiki savoblar va gunohlar nard taxtasining ustida namoyon bo'ladi. Ya'ni "Ollloh osmonda bo'ladimi, yerning eng chekka joyida bo'ladimi insonlarning qanday savob va gunoh ishlarni qilayotganlarini ochiq-oydin ko'rib turadi"⁶ deyilgan.

Ko'rguzubon naqshi xasisu sharif,

Misli qazovu qadar ikki harif.

Ko'rgizibon naqshi xasis (1.nokas, nazari past 2.xayrsiz kishi)u sharif (1.sharofatli, sharaflil, aziz 2.sara, maqbul). Misli qazo (1.biror voqeaning yuzaga kelishi 2.tasodif 3.qozilik)ga qadar ular (xasis va sharif) ikki harif (1.sherik, kasbdosh 2.o'rtoq, ulfat). Nard o'yini taxtasining naqshlari kim xayrsiz kishi, kim aziz inson ekanligini ko'rsatib turadi. Qozilik paydo bo'lgunga qadar ular (xasis, sharif) yaqin do'st bo'lishgan. Ammo keyinchalik ular bir-biriga qarshi bo'lib qolishdi.

Chun ochibon subh uzori gulin,

Zulf etib ul yuz uza tun sunbulin.

Chun ochibon subh (tong payti) guli uzor (yuz, bet)ini, zulf (ayollarning ikki chekkasidan tushib turgan kokil, umuman soch) etib ul yuza uzra tun sunbul (1.xushbo'y, qora rangli o'simlik 2. maj: sevgilining sochi). Tong guli yuzini ochganida, tunning qora rangli xushbo'y o'simligi gulning yuziga kokil bo'lib tushib turdi. Ushbu bayt tashbeh san'atining go'zal namunasi.

⁶ Қуръони карим. Ўзбекча изоҳли таржима. Т.:1992. – Б.303-304.

Ul yuz o'lub dahrg'a kofurbez,
Ustida ul zulf bo'lub mushkrez.

Ul yuz dahr (dunyo, olam) ga kofurbez (yorituvchi, ravshanlik tushiruvchi) o'lub (bo'lib). Ustida ul zulf mushkrez (mushk sochuvchi) o'lub (bo'lib). Ushbu bayt yuqoridagi baytning mantiqiy davomidir. Ya'ni tong gulining yuzi dunyoni yorituvchi va o'zidan nur taratuvchidir. Bu misrada tong guli deyilganda quyoshbobo nazarda tutilmoqda. Uning yuzi ustidagi kokillari esa olamga mushk, xushbo'y ifor taratuvchidir.

Oqu qaro uzra berib ishtihor,
Mushk ila kofurini laylu nahor.

Oqu qaro uzra ishtihor (shuhrat topish) berib, mushk (qora tusli va xush isli narsa) bilan kofur (g'oyatda oq va xushbo'y modda)ini laylu nahor (kecha-kunduz). Sen (Ollohga murojaat) kunning qismlari bo'lmish kecha va kunduzga oq va qora ranglarni berding. Ular bu ranglar bilan shuhrat topdilar. Baytda (mushk va kofur) so'zlari tazod san'atini hosil qilgan.

Chun yasabon hujrai tori dimog',
Aqldin ul hujrada yoqib charog'.

Chun yasabon tori (qo'qqisdan ko'rinish, kutilmaganda paydo bo'lish) hujra. Aqldan ul hujrada charog' (1.chiroq 2.maj:baxt, tole) yoqib. Nard o'ynaladigan taxtaning ustiga bir hujra yasalgan. Hujraning ichida aqldan chiroq yoqib qo'yilgan.

Rishta anga tori inoyat bo'lub,
Shu'la anga nuri hidoyat bo'lub.

Rishta (ip, tanop) anga (yuqoridagi baytda ko'rsatilgan hujra nazarda tutilmoqda) tori inoyat (kutilmaganda paydo bo'lgan mehribonchilik, marhamat) bo'lib. Shu'la (yolqin) ul hujraga nuri hidoyat (to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi nur) bo'lib. Ushbu ta'rifdan ko'rinib turibdiki, bu hujra aslida jannatdir. Chunki mehribonchilik va marhamat ko'rsatish, tog'ri yo'lga yetaklovchi nurning paydo bo'ishi faqatgina jannatga xosdir.

Andin olib nur ko'ngul maskani,

Lek o'churub ishq yelidin ani.

Andin (Jannat nazarda tutilmoqda) olib nur ko'ngil maskani (uyi), lek ani ishq yeli (shamoli) o'chirdi. Ko'ngil uyi jannatdan nur oladi. Ammo ul hujradagi aqldan yoqilgan chirog'ni ishq shamoli o'chirdi. Ya'ni shoir bu misra orqali aytmoqchiki, oshiq bo'lgan insonning aqli o'ziga bo'ysinmaydi, uning aqlini ishq xiralashtirib qo'yadi.⁷ U o'zini va o'zligini unitib faqat ishq uchun yashay boshlaydi.

Ishq yelin yetkurubon tundu tez,

Aql alochug'in etib rez-rez.

Ishq yeli (shamoli)ni tund (1.shiddatli, qattiq 2.g'azab, g'azabli)u tez kelib, aql alochug'ini rez-rez (mayda-mayda) etdi. Ishq shamoli g'azab bilan tez kelib, aql chirog'ini mayda-mayda qildi. Ya'ni oshiq (Ollohga oshiq bo'lish) bo'lgan inson aqldan mosuvo bo'ladi. Uning yuragi faqat va faqat ishq deya uradi. Dunyo ne'matlari uni qiziqitirmay qo'yadi.

Ham uchurub zuhdu vara xirmanin,

Ham sovurub sabru sukun maskanin.

Ham uchirib zuhd (dunyodan voz kechib, toat-ibodat bilan shug'ullanish) vara(man qilingan ishlardan chekinish, parhezkorlik) xirman (xirmon)ini. Ham sovirib sabru sukun (harakatsizlik, to'xtash) maskan (turarjoy, o'rin)ini. Ishq shunday qudratga egaki, uning shamoli dunyodan voz kechib, man qilingan ishlardan o'zni tiyib yurish xirmonini uchirib, sabr-toqat uyining kulini ko'kka sovuradi. Ya'ni Ollohga oshiq bo'lgan insonda sabr-toqatdan asar ham bo'lmaydi. Bunday inson o'zligini yo'qotadi.

Bog'i xirad naxlini xoshok etib,

Bahri balo mavjini ko'lok etib.

Bog'dagi xirad (aql, fikr, zehn) naxli (ko'chat, yosh daraxt)ini xoshok etmoq (xashakka aylantirmoq, qurutmoq). Bahri balo (balo, ofat dengizi)ning mavj (to'lqin)ini ko'lok (qattiq shamol, bo'ron) etib. Ishq shamoli bog'dagi (inson

⁷ Alisher Navoiy .Hayrat ul –abrор. Toshkent: G'afur G'ulom, 2006. – 19-20-b.'

miyasidagi) aqlning yosh daraxtini qurutib, ofat dengizining to'liqlarini bo'ron kabi kelib, qirg'og'idan toshiradi. Ishqqa muhtalo bo'lgan insonda aqldan zarracha ham nishona bo'lmaydi.

Dardu balo o'tini tez aylabon,
Tez nekim, charx sitez aylabon.

Dardu-balo o'tini (olovini) tez aylabon, tez neki charx (osmon, falak) sitez aylamoq (xusumat qilmoq, janjal qilmoq). Ishq shamoli dardu balo olovini tezlashtirdi, buni ko'rgan osmonu falaklar esa janjal qila boshladi.

Vasl sahobin chu qilib qatrabor
Aylabon ul o'tqa sukun oshkor.

Vasl (yorga yetishish, erishish) sahob (bulut)ini qatrabor (qatra to'kuvchi, tomuvchi) qildi. Ul o'tga sukun (harakatsizlik, to'xtash)ni oshkor ayladi. Ishq shamoli visol bulitini ko'zdan yosh to'kuvchi qildi. Ul o'tga (yuqoridagi baytda keltirilgan balo o'ti nazarda tutilgan) to'xtashni buyurdi. Visol bulutidan to'kilgan yomg'irlar dardu balo o'tini o'chirdi. Ya'ni oshiq va ma'shuq bir-biriga yetishkach, dardu balo o'z nihoyasiga yetdi.

Husn quyoshin qilib ofoq so'z,
Partavini ayladi olam furuz.

Husn (go'zallik,chiroy, ko'rk) quyoshini ofoq so'z (jahonni kuydiruvchi, hammani o'rtovchi) qilding. Partav (yorug'lik, nur, shu'la)sini olam furuz (olamni yoquvchi, yorituvchi) qildi. Baytda Ollohning go'zalligi va yog'dusi haqida gapirilmoqda. Ollohning husni jahonni kuydiruvchi quyoshdir. O'sha quyoshning shu'lasi esaolamni yorituvchi nurdur.

Dema quyosh, ravzai rizvon degil,
Ravza ichinda guli xandon degil.

Quyosh dema, ravzai rizvon (jannat bog'i) degin. Ravza (1.bog', gulbog' 2.jannat) ichinda guli xandon degil. Bu bayt orqali shoir "Ollohning jamolini kuydiruvchi

quyosh dema, balki jannat bog'idir, jannat bog'i ichida ochilgan guli xandondir" demoqchi. Baytda ruju san'atidan unumli foydalanilgan.

Jilvasi jon gulshani oronishi,

Ko'rmagi mahzun ko'ngul osoyishi.

Jilva (1.yaltirash 2.o'zni go'zal va porloq ko'rsatish)si jon gulshan (gulbog', chaman) oronishi. Ko'rmagi mahzun (g'amli, g'amgin) ko'ngil osoyishi (tinchlik, orom, farog'at)idir. Ollohning jilvasi jon chamaniga orom beruvchi nurdur. Uning jamolini ko'rish istagi esa g'amgin ko'ngilga orom beruvchi malhamdir. Oshiq uchun Olloh jamolidan yog'iladadigan nurning bir qismini ko'rish ham ulkan saodatdir.

Ayladi sokin kurai xokni,

Soyir etib davrai aflokni.

Ayladi sokin (tinch, harakatsiz) kurai xok (yumaloq yer yuzi)ni. Soyir etmoq (sayr etuvchi, kezuvchi) davrai aflok (doira shaklidagi osmonlar, falaklar). Shoir ushbu baytda Ollohning cheksiz qudrati va buyukligi haqida gapirmoqchi. Ya'ni kurrai zaminni harakatsiz qilgan ham, osmonu falaklarni sayr etib yuruvchi qilgan ham yolg'iz ollohning o'zidir.

Toki muhit o'rnig'a aflok erur,

Markazi oning kurai xok erur.

Toki muhit (1.o'rab olgan 2. ixota etilgan) o'rniga aflok (osmon, falak) erur. Markazi oning kurrai xok (yer yuzi) erur. Olloh tomonidan yaratilgan olamning tepasida osmonu falak bo'lsa, uning markazi yerdir. Ushbu dunyoning markazida esa Olloh tomonidan yaratilgan jamiki mavjudot yashaydi.

Lutfi bila borchag'a mavjudluq,

Qahridin-o'q bo'lg'usi nobudluq.

Lutf (marhamat, karam)i bila borchag'a mavjudluq (borlik). Qahri (g'azab, nafrat)dan o'q bo'lg'usi nobudluq. Navoiy asar hamdining so'nggi baytida ham Ollohning qudrati cheksizligi haqida gapiradi. Ya'ni yer yuzidagi jamiki yaratilgan yeru osmondan tortib, kichkina chumoligacha bularning bari Ollohning marhamati sababligina mavjuddir. Agar Ollohning qahri kelsa, bularning bari yer yuzidan yo'q bo'ladi.

Oллоhning qahri kelishiga esa bu yaratilarning o'zidan boshqa hech narsa sabab bo'lolmaydi. Shu sababli ham savob ishlar qilib, Oллоhning rahmatiga sazovor bo'lish Oллоh bandalari uchun ham qarz ham farzdir.⁸“Hayrat ul-abror” tarkibidagi hamd qism asar mazmuniga mos tarzda, falsafiy ruhda yozilgan bo'lib, Oллоhning mehri quyosh nuridan ham **yuksak**, qahri esa butun yer yuzini yo'q qilishga qodir ekanligi haqidagi mulohazalar keltirilgan.

⁸ Alisher Navoiy .Hayrat ul –abror. Toshkent: G'afur G'ulom, 2006. – 23-25-b.`

2.2. “Farhod va Shirin”dagi hamd boblarning o’ziga xos xususiyati

Alisher Navoiy “Xamsa”ning ikkinchi dostoni bo’lmish “Farhod va Shirin”ning birinchi misrasini arabcha kalima bilan boshlaydi:

Bihamdik fath abvob ul-maoni,⁹
Nasib et ko’ngluma fath o’lmak oni.

Ollohni madh etish va uning maqtovi shoirga ma’nolareshigini ochadi. Endi mening ko’nglumga ularni (ma’no eshiklari)ni fath o’lmak (zabt etish, qo’lga kiritish)ni o’zing nasib qilgaysan,¹⁰ **deya Navoiy zikr etadi.** Ya’ni shoir Ollohning maqtoviga kirishish uchun , o’zidagi mahorat va aql-zakovatni oz deb o’ylaydi. Shu sababli ham, bu yo’lda o’ziga ma’no eshiklari ochilib, ularni birma-bir zabt etib, Ollohni munosib tarzda alqash uchun madad so’raydi:

Ko’zumga ul eshik quflin radid et,

Aning fathig’a kilkimni kalid et.

Ko’zlarimga ul eshik (ma’nolar eshigi) ning qulfini radid et (ko’rsat). Qulfning ochilishi uchun esa kil (qalam) imni kalit qil. Shoir bu baytda ma’nolar eshigini ochish ortidan barcha umidlariga yetishishni va ushbu eshikning kalitini tezroq ko’zlari ko’rishini istaydi, ana shu ma’nolar xazinasidan faqatgina o’zini emas, balki olam ahlini ham bahramand qilishni o’z oldiga maqsad qilib qo’yadi.

Ochib ul ganj quflin bu kalidim,

Nasibim ayla neki bor umidim.

Agar mening kalitim (bu yerda ijodkor qalami nazarda tutilmoqda) bu ganj (ma’nolar xazinasini)ning qulfini ochsa, sen (Ollohga murojaat) ushbu xazinadan nimaniki umid qilgan bo’lsam, ularning barchasiga erishishni menga nasib ayla. Navoiy bu bayt

⁹Қуръоникарим. Ўзбекча изоҳли таржима. Т.:1992. – Б.48.

¹⁰АлишерНавоий. МАТ.20 томлик. 8 том. Тошкент: Фан, 1991.

orqali ijod yo'lida o'ziga barcha ma'no eshiklari ochilishini va avlodlarga munosib me'ros qoldirish niyatida ekanligini aytmoqchi.

Nechakim istasam naqdi javohir,

Qayon boqsam ko'zumga ayla zohir.

Qancha javohir (qimmatbaho gavhar, tosh) istasam, ularning barchasini mening ko'zimga zohir ayla (ko'rsatmoq, bilintirmoq). Bu baytda Navoiy: "Qimmatbaho gavhar, tosh deganda aslida ma'nolar xazinasini nazarda tutmoqda va bu orqali ushbu xazinadan qancha ma'no izlasam ularning barchasini mening ko'zlarimga ko'rsat" demoqchi. Birinchi misrada tashbeh san'atidan unamli foydalanilgan.

Terarga har nafas ko'rroq havas ber

Havas bergach olurga dastras ber.

O'sha qimmatbaho gavhar, toshlar (ma'nolar xazinasini)ni terish uchun menda har soniya, har on havas, ishtiyoq uyg'ot, uyg'ot. Havas berganingdan keyin ularni olish uchun menga dastras ber (imkon bermoq). Ya'ni shoir Ollohga qarata o'sha ma'nolar xazinasidan ko'proq ma'no terib olish uchun menda havas paydo qil, havas bergach esa, ma'nolarni egallash uchun menga imkoniyat ber deydi.

Anga tegur qo'lumnikim yiroqdur,

Qo'lumg'a sol anikim yaxshiroqdur.

Ular (ma'nolar xazinasini) mendan yiroqda, mening qo'limni ularga tekkizgin. Ammo ularni mening qo'limga solishing, tekkizishingdan ko'ra yaxshiroqdir. Baytda shoir Ollohga murojaat qilib, ma'nolar xazinasini mening qo'lim yetadigan joyda emas, agar ularni menga yaqinlashtirib, qo'limga solsang edi, juda yaxshi bo'lardi deydi.

Nima ko'p olmog'imga mone etma,

Necha ko'p olg'onimga qone etma.

Men ulardan (ma'nolar xazinasidan) ko'p olmoqchi bo'lsam, menga mone qilma (qarshilik qilma, to'siq bo'lma). Aksincha qancha ko'p olsam ham sen bunga qone etma (qanoat qilma, rozi bo'lma). Bu baytda shoir hayoti davomida ma'nolar

xazinasidan ko'proq ma'nolar olmoqchi ekanligini va bu yo'lda (Ollohga qarata) unga qarshilik qilmasligini, aksincha qancha ko'p olsa ham, qanoat qilmay shoirdan yanada ko'proq olishini talab qilishini istaydi.

Bu maxzan birla ko'nglumga g'ino sol,

Nechakim sochsam ilgimga yano sol.

Bu maxzan (xazina) bilan ko'nglimga g'ino (boylik) sol, qancha sochib, sarflasam ilg (qo'l)imga yana sol. Baytda xazina deyilganda ma'nolar xazinasini, boylik deyilganda esa Ollohning ishqini nazarda tutilmoqda. Ya'ni shoir Ollohga qarata mening g'arib ko'nglimga ma'nolar xazinasini egallash niyati bilan birgalikda o'z ishqingdan ham sol. Men sening ishqingdan mast bo'lib, olamga qancha ko'p sochsam, sen qo'llaringa sochishim uchun yana sol deydi.

Durafshonliqqa kilkim fosh qilg'il,

Tilimni dog'i gavharrosh qilg'il.

Durafshonliq (dur sochuvchilik) uchun kil (qalam)imni fosh qilg'il (yaratmoq). Tilimni esa dog'i (yana, tag'in) gavharrosh qilg'il (chiroyli so'z aytmoq). Bu baytda ham shoir yana Ollohga murojaat qiladi. Mening ijod qalamimni faqatgina atrofga dur sochish(hikmat ulashish va insonlarga ezgulik qilish) uchungina yaratgin. Tilimni esa faqatgina chiroyli so'zlarni aytadigan qil. Nizomiy Aruziy Samarqandiy "Chahor maqola" asarining "She'r ilmining mohiyati haqida" gi bobida " Shoirlik shunday san'atki, bu san'at orqali hayajonlantiruvchi tushunchalar hosil qilinadi va ta'sirchan o'xshatishlarni bir- biriga bog'laydi. U shunday yo'lda kichik ma'noni kattaga, kattani kichikka aylantiradi. Chiroylini xunuk libosida ko'rsatadi, xunukni chiroyli sur'atda jilvagar qiladi..." deb yozadi. ¹¹Navoiy bu misralar orqali o'z ijod yo'lida to'g'ri yo'l ko'rsatishi uchun Ollohdan madad so'raydi.

Bu durlarkim ko'zumni andin ochting,

Mening ilgim bila olamg'a sochting.

¹¹ Низомий Арузий Самарқандий. Нодир ҳикоятлар. – Т.:1986.- Б.:47.

Bu durlar bilan ko'zimni ochding, mening ilg (qo'l)im bilan olamga sochding. Bu baytning birinchi misrasida shoir olloh ko'ngliga solgan hikmatli va ma'noli so'zlar sabab ko'zlari ochilib, bu o'tkinchi dunyoga o'zgacha nigoh bilan boqishni boshlaganligini aytsa, ikkinchi misrada ushbu ma'nolardan xalqni ham xabardor qilish va ularni olamga sochish uchun shoirni vositachi sifatida tanlaganini mamnuniyat bilan tilga oladi. Qisqach qilib aytganda Navoiy o'zining bejizga shoir bo'lib tug'ilmaganini va o'zidagi noyob qobiliyatni bekorga berilmaganini tushinib yetib, o'zini Olloh tomonidan insoniyatga ma'rifat ulashish uchun yuborilgan bir vakil sifatida tasvirlaydi.¹²

Tamannosing hazin ko'nglumdin olma,

Sochilg'on birla tufrog' ichra solma.

Tamannosing (tilak, istak, orzu)sini hazin (g'amgin, qayg'uli) ko'nglimdan olma, sochilgani bilan tuprog' ichiga solma. Ma'noli va hikmatli so'zlarni ommaga yetkazish istagini mening g'amgin ko'nglimdan olma, ularni (ma'noli so'zlarni) xalqqa ulashganim bilan darrov tuproq ichiga kirmasin. Ya'ni shoir aytmoqchiki, mening aytgan so'zlarimni xalq keraksiz bir buyumdek tuproq tagiga ko'mmasin, esidan chiqarmasin. Har bir so'zim ularning ko'nglidan chuqur joy egallasin va doimo yodida tursin.

Shoir mulohazalarini davom ettirib, navbatdagi baytda shunday deydi:

Shah olsa dog'i qilsun toji tarak,

Qul olsa ham anga bo'lsun muborak.

Shah (shoh, hukmdor) olsa, uni (Ollohning ma'noli va hikmatli so'zlarini ommaga yetkazish istagi)ni toji tarak (bosh ustiga qo'yilgan toj) qilsin. Qul olsa bu unga ham muborak bo'lsin. Agar Ollohning ma'noli va hikmatli so'zlarini ommaga yetkazish istagi shohga nasib qilsa, shoh uni boshining ustiga toj qilib kiysin. Mabodo bu orzu

¹² Алишер Навоий. МАТ.20 томлик. 8 том. Тошкент: Фан, 1991.

qulga nasib qilsa, bu unga ham muborak bo'lsin. Ya'ni oddiy bir erki o'zida bo'lmagan qul bo'ladimi yoki butun bir mamlakatning podshohi bo'ladimi ular Ollohning oldida tengdirlar va Olloh o'zi istagan bandasigagina bu orzuni nasib qiladi. Baytdagi (shoh va qul) so'zlari tazod san'atini hosil qilgan.

Anga ishq ahlini qil orzumand,

Aning birla alarni ham barumand.

Anga (Ollohning ma'noli va hikmatli so'zlarini ommaga yetkazish istagi)ga ishq ahlini ham orzumand (havasmand) qil. Bu bilan ularni (ishq ahli)ni ham barumand (bahramand) qil. Ushbu bayt mantiqan yuqoridagi baytlarning davomidir. Ya'ni Ollohning ma'noli va hikmatli so'zlarini ommaga yetkazish istagiga ishq ahli ham havasmand bo'lsin, buni ular ham orzu qilishsin. Marhamati va karami keng Ollohim bu orzudan ularni bahramand qil.

Takallum ahlig'a sarmoya ayla,

Ne dur nazm etsalar riroya ayla.

Takallum (so'zlash, gapirish) ahliga sarmoya aylamoq (yordam bermoq, ko'maklashmoq). Nima deb nazm etsalar (she'r aytmoq) ham riroya aylamoq (mukofotlamoq, taqdirlamoq). Bu yerda takallum ahli deyilganda shoirlar nazarda tutilmoqda. Baytda shoir Ollohga murojaat qilib, shoirlarga xalqqa ilm-ma'rifat ulashish yo'lida ko'maklashish va yordam berishini so'raydi. Ikkinchi misrada esa ular nimaiki deb xonish qilsalar ham sen ularni taqdirlagin, mukofotlagin deyiladi. Kaykovus "Qobusnoma" nomli nasihatnomasining alohida bir bobini she'r va shoirlik ta'rifiga bag'ishlagan: "Shoir bo'lishni istasang, harakat qilki, so'zing oson va foydali bo'lsin, boshqalar uning sharhiga muhtoj bo'lgudek so'zni aymagil, chunki she'r xalq uchun yoziladi, o'zi uchun emas. Bir xil vazn va qofiyaga qanoat qilmagil, tartibsiz she'r aytmagil. G'azalni go'zal va ravshan yozg'il, madhda baquvvat va balandhimmat bo'lgil, har bir odamga loyiq soz aytgil va har bir kishining qadriga qarab she'r bitgil"¹³ Qisqacha qilib aytganda, shoirlar Olloh

¹³Кайковус. Қобуснома. Т.: 1982. –Б.98.

tomonidan xalqni ziyoli qilish va ularning qalbini go'zallikka oshno qilish uchun yerga yuborilgan vakillardir.

Zamon durjini andin to'lo qil,
Falak javfini andin imtilo qil.

Zamona durj (qiymatli toshlar solinadigan quticha, maj: og'iz, ko'ngil)ini andin (ollohning ma'noli va hikmatli so'zlari)dan to'lo qilmoq (to'ldirmoq). Falak (osmon, ko'k) javf (biror narsaning ichidagi bo'shliq joyi, kovak)ini andin (Ollohning ma'noli va hikmatli so'zlari)dan imtilo qilmoq (to'ldirmoq). Bu baytda hattoki zamonning ko'nglini ham Ollohning ma'noli va hikmatli so'zlari bilan to'ldirish kerakligi, bundan tashqari osmonning bo'sh joylarini ham Ollohning nomi va kalomi bilan to'ldirish kerakligi aytilgan. Ya'ni butun dunyo, koinot undagi har bir tirik mavjudot Ollohning yaratig'i ekanligi va ular hamisha ollohning nomi va yodi bilan yashashlari zarurligiga ishora qilingan. Barchamiz Ollohning qulimiz, bir kun albatta, hammamiz yana Ollohning huzuriga qaytamiz.

Ani sindurg'on elni qil shikasta,
Xujasta ko'rgan elga tut xujasta.

Ani (Ollohning ma'noli va hikmatli so'zlari)ni sindirgan elni shikasta qilmoq (mayib, majruh qilmoq). Xujasta (qutlug', muborak) ko'rgan elga xujasta tutmoq. Shoir hamd qismning so'nggi baytida Ollohning nomi va kalomini yer bilan bitta qilib sindirgan elni Olloh ham xuddi shunday ahvolga solishi va aksincha, Ollohning nomi va yodini qutlug' deb bilgan elga hamisha baxtiyorlikni nasib aylashini aytadi. Baytdagi (xujasta va shikasta) so'zlari tazod san'atini hosil qilgan.

Boshqa dostonlar kabi "Farhod va Shirin" dostoning hamd qismi ham, Ollohning maqtovi va uning nomini ulug'lash mazmunidagi baytlar bilan yakunlanadi. Dostonning hamd qismi doston mazmuni bilan ham bog'lanadi.

2.3. “Layli va Majnun”da hamd xarakterdagi baytlar tahlili

An'anaga muvofiq “Layli va Majnun” dostoni ham Olloh hamdi bilan boshlanadi:

Ey yaxshi oting bila sarog'oz,
Anjomig'akim yetar har og'oz.

Shoir o'z hamdini (hamd arabcha maqtov, shukur) Ollohga murojaat bilan boshlagan. Ya'ni sening ezgu noming bilan sarog'oz (boshlamoq) qildim. “Zero, har anjom (oxir, tugash) va og'oz (boshlanish) senga yetar” deydi. Navoiy baytda qanday ish bo'lishidan qat'iy nazar Ollohning nomi bilan boshlansa xayrli yakun topishiga urg'u beradi. Chunki har ishning ibtidoyu intihosi Olloh qo'lidadir. Mazkur fikr ifodasi uchun tazod san'ati (anjom va og'oz) so'zlari o'rinli xizmat qilgan.

Ey sendin ulus xujasta farjom,
Og'ozingga aql toimay anjom.

Ey (Ollohga murojaat) sendan ulus (el) xujasta farjom (yaxshilik kutmoq, oqibati yaxshi bo'lmoq). Og'oz (boshlanish) aql toymay anjom (oxir, tugash). Shoir baytda Ollohga qarata ojiz qullaring, osiy bandalaring sendan faqatgina ezgulikni kutadi. Istagan amalingni istagan vaqtingda boshlaysan, istagan vaqtingda yakunlaysan. Bunday qilishga faqatgina sening aqling qodir. Baytda Ollohning “Karim”ismiga ishora qilingan. Ya'ni Olloh karami keng, rahmdil va mehribondir.¹⁴ Shu sababli ham, insonlar Ollohga suyanadilar, Ollohdan madad so'raydilar.

Hamdda shoir Olloh sifatlariga urg'u berib, qudratli Zotning boqiy ekanligiga, insonlarning foniyligiga alohida e'tibor qaratadi:

Ey aqlg'a foizi maoniy,
Boqiy senu borcha xalq foniy.

Darhaqiqat, Olloh abadiy mavjud, insoniyat hayoti esa o'tkinchiligi Qur'oni karim suralarida ham ifodalangan. Shoir Ollohni madh etib, uning aqlga foiz (boy), maoniy (ma'nolar) egasi ekanligini ham nazardan chetda qoldirmaydi. Navoiy baytda

¹⁴Қуръони карим. Ўзбекча изоҳли таржима. Т.:1992. – Б.61.

“boqiy” va “foni” soʻzlari orqali tazod sanʼatidan, “aql” va “maoniy” soʻzlari orqali esa tanosub sanʼatidan oʻrinli foydalanganligini koʻrish mumkin. Keyingi baytda Ollohning yaratuvchilik sifati haqidagi mulohazalar bayon etiladi:

Ey elga adam baqoni aylab,

Zotinggʻa fanoni foni aylab,

Yaʼni adam (yoʻq, yoʻqlik) olamidan elni yaratding, oʻzing baqo (boqiy, abadiy) zotsanki, “Sen oʻzing xalq qilgan (yaratgan) el uchun fano (yoʻq boʻlish) yoʻlini tanlagansan” deya Qurʼoni Karimda keltirilgan fikrlarga ishora qiladi. Navoiy “adam”, “baqo” soʻzlari orqali tazod va “adam”, “fano” soʻzlari bilan tanosub sanʼatini hosil qilgan. Shoirning badiiy mahorati mazmun ifodasini asosli va oʻziga xos tarzda ifodalash uchun xizmat qilgan.

Maʼlumki, Olloh taollo oʻz bandalarini yaratib, ularga yuksalish maqomini berdi. Ilm egallash va u bilan dunyo va oxirat haqida bilish bilan bogʻliq tushunchalarni anglamoq imkoniyatini bergan. Ammo gʻayb sirlari mavjudki, uni Ollohdan oʻzga bila olmas. Olloh uchun nafaqat gʻayb sirlari, balki hech bir sir nomaʼlum emasligi hamdning keying baytlarida qayd etilgan:

Ey ilminggʻa gʻayb sirri maʼlum,

Mavjudsen, oʻzga borch maʼdum.

Shoir ey (ollohga murojaat) ilmiga gʻayb (gʻoyiblik, koʻzga koʻrinmaydigan) sirlar maʼlum boʻlgan zot, Sen hamish mavjudsan borsan, qolgan barcha, yaʼni maxluqot olami (yaratilganlar) esa oʻtkinchidir, deya murojaat qilib, Ollohning azaliy va adabiy Zotligiga urgʻu bergan. Baytdagi “maʼlum” va “maʼdum” (mavjud emas, yoʻq boʻlgan) soʻzlari tazod sanʼatini keltirib chiqargan.

Navoiy Ollohning cheksiz qudrat sohibi ekanligini izohlab, yaratuvchining lutfi bilan barcha ashyolar mavjudlik nomiga erishishi, ammo qahri bilan nobudlikka yuz tutishi mumkinligiga urgʻu beradi. Yaʼni qudratli Olloh uchun yoʻqdan bor qilmoqlik yoki bordan yoʻq qilmoqlik hech bir muammosiz ekanligini taʼkidlagan:

Ey yo`q qilibon adamni budung,

Yo`qlug`ni adam qilib vujudung.

Tangri taollo adam (yo`q, yo`qlik) olamini qudrati bilan bud (borlik, mavjudlik) etib, adamni yo`q qildi, ya`ni adam (yo`qlik) olamidan bud (borlik, mavjudlik) hosil bo`ldi. Hamd bobining deyarli barcha baytlarida tazod san`atining qo`llanilgani mazmun mohiyat ifodasi uchun asosli xizmat qilgan deyish mumkin. Jumladan, ushbu baytdagi “bud”, “adam” so`zlari ham tazod hisoblanadi.

Tasavvuf ahli orasida “Olloh go`zaldir. Go`zallikni sevir”, degan fikr bot-bot tilga olinadi. Shuning uchun Tangri taollo o`ziga xalifa deb bilgan insonni ham go`zal qilib yaratgan. Mana shu go`zallik, chiroy butun insoniyatni maftun etadi. Naql qilinishicha, “Misr ayyollari Yusuf payg`ambarni ko`rgach, u kishining go`zalliklaridan hayron qolib qo`llarini keskanliklarini ham payqamaydilar”¹⁵

Navoiy bu borada keyingi baytda shunday deydi:

Ey husnni dilpazir qilg'on,

Ey ko`nglin anga asir qilg'on.

Ey (Ollohga murojaat) husn (go`zallik, chiroy)ni dilpazir ( ko`ngilga yoqadigan, yoqimli) qilgan. Ey (Ollohga murojaat) ko`nglini unga (go`zallikka) asir qilgan Zot faqat Sensan, deya Ollohga murojaat qilgan. Shoir baytda Olloh koinotdagi barcha go`zallikni dilpazir (ko`ngilga yoqadigan) qilib yaratgan va hatto shu go`zallikka uning o`zi ham asir bo`lganligini bayt mazmuniga singdira olgan¹⁶.

Olloh bandalarini go`zal qilib yaratganligini ta`kidlagan edik. Ammo aytish joizki, Ollohning o`zi tengsiz go`zal, bandalari Unga oshiq, shaydo bo`ldilar. Bu tom ma`nodagi oshiqlik bo`lib, ayni ahvolga tushganlar majnun(junun, telba)ga aylanishlari, tabiiy bir hol edi:

¹⁵Қуръони карим. Ўзбекча изоҳли таржима. Т.:1992. – Б.298.

¹⁶ Алишер Навоий. МАТ.20 томлик. 9 том. Тошкент: Фан, 1991

Ey husng`a aylaganni shaydo,

Majnunlug` ila qilib huvaydo,

Ey (Ollohga murojaat) husn (go`zallik, majoziy ma`noda Ollohning husni, go`zalligi) ga shaydo bo`lganning holini bilmoqchi bo`lsangiz, Majnunning ahvoliga boqsangiz huvaydo (ayon, ravshan) bo`ladi.

Husnga maftun bo`lish, oshiq bo`lish – bu ishq dardiga mubtalo bo`lmoqlikdir. Zero, ishq eng azaliy va adadiy tuyg`uki, naql qilishlaricha insoniyatdan han avval yaratilgan ekan: “Olloh taolo eng avval yaratgani rasulullohning nuri edi. Shundan keyin ul nurni to`rtga bo`lib, bir bo`lagidan Arshi A`loni, bir bo`lagidan qalamni, uchinchi bo`lagidan Jannatni va so`nggi bo`lagidan mo`minlarni yaratdi. Keyin ul to`rt bo`lakni yana to`rtga bo`lib, birinchi bo`lagidan azizu mukarram Rasulullohni, ikkinchi bo`lagidan aqlni, uchinchi bo`lagidan Uyatni, to`rtinchi bo`lagidan Ishqni yaratdi ”¹⁷.

Navoiy ham ishqni jahonni kuyduruvchi qudrat sifatida e`tirof etadi:

Ey ishq o`tin aylagan jahonso`z,

Har bir shararini xonumonso`z,

Ey (Ollohga murojaat) ishqining olovini jahonso`z (jahonni kuydiradigan, jahonga fitna soladigan) qilgan zot. Sen uning (olovning) har bir sharar (uchqun, alanga)sini ham xonumonso`z (bor-yo`g`ini kuydiruvchi) qilib yaratding, deya ishqni Olloh tomonidan qudratli qilib yaratilganligini ta`kidlaydi. Ya`ni mobodo ko`ngilga ishqidan bir uchqun tushsa insonning bor-yo`g`ini kuydirib yuborishi uqtiradi.

Ijod ahllari ishqqa o`t deya ta`rif beradilar. Darhaqiqat, u –o`t; tushgan joy (ko`ngil)ni, jahonni, xonumonni yondiradi:

Ey o`rtab ul o`tqa xonumonlar,

Ne xonu ne monki, jismu jonlar,

¹⁷Қуръони карим. Ўзбекча изоҳли таржима. Т.:1992. – Б.427.

Navoiy ul o`t (ishq o`ti)ga xonumon (uy-joy, bor-yo`q)lar o`rtanadi. Nafaqat xonumonlar, balki bu olovda jismu jonlar ham o`rtangay, deydi. Mazkur baytda shoir ruju san`ati orqali fikr ta`sirchanligiga erishgan.

Husn va ishq egiz tushunchalardir. Go`zallik ishqni yetaklaydi:

Ey kimniki aylabon parivash,

Majnun anga yuz asiri g`amkash,

Ey (Ollohga murojaat) sen kimniki parivash (paridek go`zal) qilib yaratsang, unga oshiq bo`lgan kimsa (Majnun) ul go`zalga yuz marotaba asir bo`lib, g`amkash (g`am tortuvchi, alam chekuvchi) bo`lib qoladi, deya Navoiy ishq qudratiga yana bir karra urg`u bergan.

Ishq dardiga muhtalo bo`lgan oshiqning ruhiy holatida kuchli o`zgarish ro`y beradi. Uning qalbi, joni ishq va oshiqlik tufayli o`rtanadi:

Ey kimni qilib parig`a Majnun,

Ashki suyin oqizib jigargun.

Navoiy ey (Ollohga murojaat) sen kimniki Majnundek pariga asir qilsang, uning ashk (ko`z yoshi)i jigargun (jigarrang), qon bo`lib oqadi, deya mubolag`a, talmeh san`atlari orqali ishq va oshiqlik masalasiga baho bergan.

Olloh oliy qudratli zotdirki, u har erda va har vaqt hoziru nozir. Har nafasda, har zarrada zuhrdir – bordir. Butun borliq uning borligiga dalildir:

Ey har sorikim qilib tajalli,

Ul mazhar o`lub jahonda Layli.

Navoiy Ollohning har sori (taraf, tomon) tajalli (ko`rinish, jilvalanish) qilganligini, ul mazhar (sening yerdagi ko`rinishing, paydo bo`lish) jahonda Layliga nasib bo`ldi, deya “Layli va Majnun” haqidagi hikoyatga ishora qilgan. Baytda talmeh vositasida obraz va ifoda mohiyati ochib berilgan.

O`z mulohazalarini davom ettirib shoir, “Layli va Majnun” dostonidagi voqealarga ham ishora beradi. Dostonda Majnun uchun Olloh tajallisining oti Layli, unga oshiq bo`lgan Qays, ammo uning sifati Majnun (telba, jinni) edi:

Ey oniki Layli aylab otin,

Majnun qilmoq, qilib sifotin.

Baytda Olloh ishqidan o`rtangan qalb sohibi majnun sifatiga ega bo`lishi, ya`ni butun es-hushdan ajralib, faqat Haq yodi bilan yashash va Unga erishish g`oyasi ifodalangan. Bu o`rinda Qur`oni Karim “A`rof” surasining 143-oyatida keltirilgan. Muso payg`ambar Ollohning jamolini ko`rish uchun kunu tun toat ibodat qilgani, ammo Olloh jamolining bir shu`lasini ko`riboq necha ming yil hushidan ketib yotgani va qayta uyg`onganda yana Olloh nomini aytganligi bilan bog`liq fikrlarni keltirish o`rinlidir¹⁸.

Ma`lumki, ishq aqlga bo`ysunmaydi. Bo`ysunsa bu – ishq sanalmaydi:

Ey Majnunung xiraddin ozod,

Ohi beribop xiradni barbod,

Shoir Majnun (ishq yo`lidagi telba oshiq)ning xirad (aql, zehn) ga ega emasligini ta`kidlar ekan, uning (Majnun) har bir qilgan ohu, nolasi o`z aqlini barbod qilyapti, aqldan ozishiga sababchi bo`lyapti, deb ishq va aql tushunchalariga o`ziga xos tarzda baho bergan.

Ishqqa “Temirni oltinga aylantiruvchi – kimyo”, deb bejizga ta`rif berilmagan:

Ey aql sening yo`lingda g`ofil

Kim telba, sening yo`lingda oqil.

Navoiy ishq yo`lida aql hamma narsadan g`ofil (g`aflatda qolmoq, bexabar) bo`ladi. Telba esa, ishq yo`liga kirsa, u bu yo`lda oqil, donoga aylanishini ta`kidlagan. Baytda Ollohning visoli tomon olib boradigan yo`lga kirgan har bir insonning vujudu qalbi

¹⁸Қуръони карим. Ўзбекча изоҳли таржима. Т.:1992. – Б.345.

pok bo'lishi, imon, insof unga doim hamroh bo'lishi haqida aytiladi. Baytda mohiyat ifodasi uchun tazod ("telba" va "oqil") san'atidan o'rinli foydalanilgan.

Olloh – eng qudratli, buyuk zot, ayni damda kechirimli, bandalariga mehribondir:

Ey bandalariga jovidona,

Omurzish uchun tilab bahona,

Shoir Tangri taolloning bandalariga (qullariga) jovidona (abadiy, mangu) mehribon zot ekanligini, doimo bandalarining omurzish (gunohni kechirish, avf etish) uchun bahona izlab yurishini baytda ta'kidlab, Ollohning o'z qullariga nechog'lik mehribon, karami keng Zot ekanligiga urg'u beragan.

Olloh taollo o'z bandalariga tavba qilish, gunohlari uchun avf tilash imkonini ham bergan:

Ey ashk suyidin aylabon past

Do'zax o'ti shu'lasini payvast.

Navoiy Olloh o'z bandalariga mehribon zot bo'lishi bilan birgalikda, ularga gunohlarining kechirishini tilab, ko'z yosh to'ksalar, bu ashk (ko'z yoshi) suyidan do'zax o'tining shu'lasini past bo'lishini baytda keltirgan. Zero, diniy adabiyotlarda ayni masala bilan bog'liq fikrlar mavjud: "Gunohkorlarni gunohlari miqdoriga qarab azoblaydilar, keyin do'zaxdan chiqarib, jannatga yo'llaydilar. Ular jannatda abadiiy qoladilar".

Ollohning azamatlik qudrati oldida hech bir narsa tashbeh bo'lolmaydi. Chunki U eng buyuk, eng qudratli Xoliqdir:

Ko'k yer kibi pastu murtafisen,

Balkim yeru ko'kka muxtarisen,

Shoir Tangri qudrati oldida ko'k (osmon) yer kabi past, ammo Uning o'zi murtafi (yuksalgan, baland)dir. Qolaversa, shu yeru ko'kning muxtari (yaratuvchi, yangidan

yaratuvchi)san, deydi. Baytda “ko`k” va “yer” so`zlari tazod sifatida qo`llanilib, ko`k ham Ollohning oldida yer kabi past ekanligi izohlash uchun qo`llanilgan.

Ollohning cheksiz qudratini ko`rsatuvchi jihatlar bir talay. Shulardan biri to`rt zid unurning muvofiq holda yaratganligida ham ro`rinadi:

Sun`ung bila to`rt zid muvofiq,

Hukmung bila yetti ko`k mutobiq.

Alisher Navoiy insonning yaratilishidagi to`rt unsur va Olloh tomonidan ko`kning yetti qat qilib yaratilganligini bayt mazmuniga singdirgan. Sun`ing (yaratishing, qudrating) oldida to`rt zid (tuproq, suv, otash, shamol) ni bir-biriga muvofiqdir. Hukming oldida esa yetti ko`k (osmonning yetti qavati) mutobiq (muvofiq, uyg`un)ligi ham Sening azamatlik qudratingdan nishonadir, deydi. Bu borada Xoja Bektoshiy Valiy shunday deydi: “Haq subhanaka va taolo Odamni to`rt unsurdan yaratdi. Inson yaratilgan bu to`rt unurning birinchisi – tuproq, ikkinchisi – suv, uchinchisi – otash va to`rtinchisi – shamol erur”.

Ollohdan bandasiga neki kelsa behikmat emas. Chunki Olloh o`z qullariga hech yomonlikni ravo ko`rmas:

Tun-kunki qilur sipehr novard,

Sening talabingdadur jahongard.

Tun-kun sipehr (osmon, falak) novard (yugurish, aylanish) qilur, sening talabingdan jahongard (jahonni kezuvchi, jahongashta). Baytda Ollohning qudrati nihoyatda cheksiz ekanligini isbotlovchi misralar keltirilgan. Ya`ni Ollohning talabi va xohishi bilangina osmonu falak tunu-kun aylanadi, jahonni kezib yuradi. Haqiqatdan ham osmon doimiy harakatda, ammo Ollohning qudrati shunchalik sirliki, biz osiy bandalar osmon boshimiz ustida bo`lsa ham, buni sezmaymiz.

Boshdinki qadam qilib durur mehr

Istab seni bo`ldi za`faron chehr.

Boshdan mehr (quyosh, oftob) sen tomon qadam qo'ydi. Seni istaganligi sababli chehr (bet, yuz, chehra)si za'faron (sariq tusli) bo'ldi. Bilamizki, Ollohning jamoli yashirin, yer yuzidagi hech bir tirik jonzot Ollohning husnini ko'rishga qodir emas. Olloh yagona zot, u faqatgina o'z tajallilarida jilvalanadi xolos.

Birgina quyosh Ollohning jamolini ko'rish uchun qadam qo'ygan edi, uning rangi sariq tusga kirib qoldi va u abadul abad shu ko'rinishda qoladi, aslo o'z holiga qaytolmaydi.

Bordur talabingg'a borcha moyil,

Lekin seni topmoq asru mushkil.

Talabingga (Ollohn ko'rish istagi) ga barcha moyil. Ammo seni topmoq asru (juda, benihoyat) mushkuldir. Ushbu bayt mantiqan yuqoridagi baytning uzviy davomidir. Ollohning jamolidan bahramand bo'lishni har bir mahluqot istaydi, ammo afsuski, ollohning jamolini, uning aslida kim ekaniyu, qnday ko'rinishda ekanligini hech kim hech qachon bilolmaydi. Bizga faqat uning osmonda Arsh arkida sultonliga va o'tirishi ma'lum, xolos. Ammo u yerga inson oyog'i hech qachon yetib borolmaydi.

Har negaki desa o'xshamassen,

Sendin durur ul sen ul emassen,

Har narsagaki sen o'xshamassan, "shu narsa" sen (Olloh) deb turilsa ham, sen aslida u emassan. Olloh butun koinot, nabodot va o'n sakkizming olamni birgaina "yaral" degan so'zni aytish orqali yaratgan. Ammo Ollohning qiyofasi shu darajada, noma'lumki shuncha yaratiqning ichidan aqalli bir mavjudot ham Ollohga o'xshamaydi. Ba'zi dinlarda yaratguvchi nimaningdir qiyofasida gavdalanadi. Masalan: budda dinida "haykalchada", xristian dinida "xochdagi Iso qifofasida" ammo islom dinida Olloh hech bir buyumda gavdalanmaydi. Biz hech bir narsani hech qachon ana shu Ollohning yerdagi qiyofadoshi deb ko'rsatolmaymiz.

Harne seni desa royi soyib,

Ul sendinu sen aroda g'oyib,

Har nima seni desa royi (fikri, qarashi) soyib (to'g'ri). Ul seni deb tursa, sen orada g'oyib (yashirin, ko'zga ko'rinmas) bo'lib qolasan. Qaysiki, bandang seni nimadadir jilvalantirsa yoxud seni nimagadir o'xshatsa uning fikri to'g'ridir, balki u o'zicha haqdir. Ammo sen baribir orada g'oyib bo'lib qolasan. Aslo ko'rinish bermaysan. Bu bayt orqali shoir Ollohni nimagadir mengzashning foydasi yo'q. Chunki insoniyatning ko'zi ko'rgan, qo'li bilan ushlagan har bir narsasi Ollohning yaratig'idan ortiq narsa emas.¹⁹ Yer yuzida Ollohning qiyofadoshi bo'ladigan hech narsa yo'q va hech qachon bo'lmaydi ham.

G'oyibsen angaki bo'lsa nozir,

Nozirg'a dog'i bor ishda hozir.

Sen (Ollohga murojaat) ko'zga ko'rinmaydigan nozir (nazorat qiluvchi)san va har joyda hozir (hozir bo'lmoq, xushyor bo'lmoq). Bu baytda Ollohning ko'zga ko'rinmas, hamma joyda hoziru nozir nazoratchi ekanligi aytilgan. Chindan ham Olloh ko'zga ko'rinmaydi, ammo yuqoridan turib mayda hasharotdan tortib, kuchli shamolu bo'ronlargacha nazorat qilib turadi. Ollohning nazaridan hech bir voqea hodisa chetda qolmaydi. Faqatgina o'zi xolis, adolatli hakamdir.

Aflokka sen shitob berding,

Anjumg'a bu nuru tob berding.

Aflok (falak, osmon)ga sen (Ollohga murojaat) shitob (oshiqish, shoshilish)ni berding. Anjum (yulduzlar)ga porlash, nur taratishni berding. Baytda Olloh marhamati sababli, osmonu falakka hamisha aylanib, kezib yurish xususiyatini, yulduzlarga esa tunda nur taratish, o'zidan yorug'lik chiqarish xislatini berganligi aytilgan. Ya'ni Olloh yer yuzidagi hech bir narsani bekorga yaratmaganligi, har bir narsaning yaratilishidan ma'lum bir maqsad ko'zlanganini bilib olamiz. Hattoki, oyog'imiz tagida o'rmalab yuruvchi hasharotlar ham ma'lum bir vazifani bajarish uchun yaratilgan.

¹⁹ Алишер Навоий. МАТ.20 томлик. 9 том. Тошкент: Фан, 1991

Kun yuzini aylading mushakkal,

Tun ko'zini aylading mukahhal.

Kunning yuzini mushakkal (yorug', nurli) qilding. Tunning ko'zini esa mukahhal (surmali, surma qo'ygandek qora) qilding. Ey yaratuvchi Olloh, sen tun va kunni yaratding. Kunning yuzini yorug', nurli qilding, tuning ko'zini esa surma qo'yilgandek qora qilding. Chetdan qaraganda, tun va kunning ketma-ket almashinuvi oylarni, yillarni yetaklab keladi. Shu tariqa umrimiz ham o'tib ketadi. Bu narsa bizga tabiat qonunidek tuyiladi. Aslida esa bularning barchasini Olloh yaratgan va o'zi nazorat qilib turadi. Baytda (kun va tun) so'zlari tazod san'atini hosil qilgan.

Ey siymini aylading zarafshon,

Tuning shab'asini gavharafshon.

Ey (Ollohga murojaat) siym (kumush, aqcha tanga)ni aylading zarafshon (zar sochuvchi). Tunning shab'asini esa gavharafshon (gavhar sochuvchi) qilding. Baytda shoir Ollohga murojaat qiladi, bu bayt yuqoridagi baytlarning mantiqiy davomidir. Chunki bu baytda ham Ollohning mo'jizakor yaratig'lari haqida so'z boradi. Kumush tangalarni o'zidan zar sochuvchi qilib yaratding. Tunning yulduzlarini esa gavhar sochuvchi qilding.

Toqqa beribon libosi xoro,

Zarrin kamar etting oshkoro.

Tog'larga xoro (tovlanib turadigan, qimmatbaho ipakli) libos berding. Bundan tashqari ularga zarrin (zarli, zar bilan ziynatlangan) kamar (belbog', tog' yoki suv kamari) ham tuhfa qilding. Baytda Ollohning tog'larni go'zalroq va salobatli qilish uchun ustiga qimmatbaho libos, zarli kamar hadya qilgani haqida gap bormoqda. Chindan ham tog'larga diqqat bilan e'tibor bersak, tog'larning ustiga quyoshda tovlanib turadigan zarhal libos tashalgandek tuyiladi. Bu ham Ollohning mo'jizalaridan biridir.

Qish mehrini chun itikrok etting,

Qorning sadafin arusak etting.

Qishning mehrini itik (o'tkir, keskir, tez) qilding. Qorning sadaf (marvarid qobiq) ini arusak qilding. Bu baytda ham Ollohning tabiat manzaralarini qay tarzda go'zal qilib yaratganligi haqida fikr boradi. Olloh to'rt fasldan biri bo'lmish qish faslining tabiatini o'tkir, keskir qilib, qishning ko'rki bo'lmish qorning rangini esa, sadafdek oq qilib yaratdi. Ya'nikim, Olloh yer yuzidagi har bir narsani bir-biriga mutanosib qilib yaratgan va ular bir-birini to'ldiradi.

Yoz yomg'uri yetgach aylading bot,

Yer chakmanini yashil saqarlot.

Yoz yomg'iriga navbat kelgach, uni yanada bot (tez, shitobli) qilding, yerning chakmonini esa yashil saqarlot (jundan to'qilgan liyimlik) qilding. Bu baytda yoz fasli va uning chiroyini ko'rsatib turadigan yoz yomg'iri haqida gap boradi. Olloh yoz yomg'irining yog'ishini, qish faslining shamoli esishidan ham tezroq qilib yaratdi. Yoz faslida yerning kiyimini yashil qilib yaratdi. Yomg'ir to'xtovsiz yog'ib turgan bir vaqtda, oyoq ostidagi yerning yam-yashil maysalar bilan qoplanishi kishida ko'tarinki kayfiyat hosil qiladi.

Lola qadahini toshqa urdung,

Jola guharini boshqa urdung,

Lolaning qadah (piyola, kosa)ini toshga urding, jola (do'l, shudring) guhar (gavhar, dur, yoqut)ini boshga urding. Bu bayt mazmunan yuqoridagi baytning uzviy davomidir. Ya'ni, yoz faslida ochiladigan lolaning piyola shaklidagi gullarini yomg'irni shiddatkor yog'dirib, toshlarga urding, parchalading. Yoz faslida yog'adigan do'llarning gavhar, durlarini (bu yerda yomg'ir tomchilari gavhar, durlarga o'xshatilgan) boshga urding. Baytda tashbeh san'atidan juda o'rinli foydalanilgan.

Gul yafrog'ini havog'a sochting,

G'uncha karamini sabodin ochting,

Gulning yaprog'larini havoga sochding, g'uncha (gulning novdalik davridagi birinchi haftalik ko'rinishi) karam (olijanoblik, marhamat) ini sabo (mayin, yoqimli shamol) yordamida ochding. Ushbu baytda ham yoz faslida bo'ladigan ajoyib tabiat hodisalari haqida gapirilmoqda. Yoz faslida ochiladigan gullarning yaproqlarini havoga sochib yubording. Gulning g'unchalarini esa mayin shamol yordamida ochding.

Gulga beribon zumurradiy taxt,

G'uncha kibi aylading javonbaxt.

Gulga zumurrad (yashil rang)li taxt (podshohning o'tiradigan maxsus o'rindig'i) ni berding. Bu orqali sen uni g'uncha kabi javonbaxt (baxtiyor, baxtli) qilding. Sen (Ollohga murojaat) gulning yaprog'ini havoga sochganing sababli gulning yaproqlari yerga to'kildi va shu sababli ham ular yashil taxt (yer yuzi)ga o'tirdilar. Bu orqali sen ularni g'uncha kabi (g'uncha ham shamol yordamida ochilgan edi) baxtiyor qilding. Ya'niki gulni ham g'unchani ham aslida tomirini yerda qilib yaratding, ammo ikkalasiga ham bir xil baxt (osmonda parvoz qilish)ini berding.

Kecha anga bo'lmasun debon biym,

Berding nargisga mash'ali siym.

Kecha (kechqurun) anga (gullar)ga biym (qo'rquv, xavf) bolmasligi uchun, nargisga (gulning bir turi) mash'al (yorug'lik, oqlik)ni berding. Gullar tunda qo'rqmasliklari uchun Olloh taolo nargisga tunda o'zidan yorug'lik, nur taratib turish xususiyatini berdi. Bu ham yaratganning ajoyib mo'jizalaridan biridir. Bundan ko'rinib turibdiki, Olloh shu darajada mehribonki, u tirik jonzotlardan tashqari, yedagi maysa va o't-o'lanlarni ham bir-birini himoyalash uchun yaratgan.

Chun ko'kni xusufzod qilding,

Oyning kumushin savod qilding.

Nima uchundir ko'k (osmon)ni xusufzod (tutiltiruvchi, tutilish sababchisi) qilding. Oyning kumush (yaltiroqlik)ini savod (qoralik, qora rang) qilding. Yuqoridagi baytlardan ma'lum ediki, shu vaqtgacha Ollohning go'zal yaratilishlar yaratganiyu, mehribonligiga guvoh bo'ldik. Ammo aynan ana shu baytdan boshlab, Ollohning qahr-g'azabi chiqqanda nimalarga qodir ekanligiga guvoh bo'lamiz. Ya'ni Olloh ko'kni go'zal va musaffo qilib yaratishdan tashqari, oy va quyosh tutiladigan makon qilib belgiladi. Oyning oq rangini esa qoralikka aylantirdi. Bu hodisalar Ollohning o'z yaratgan mavjudotlaridan jahli chiqqanda sodir bo'ladi.

Gohiki kasofat etti mahtob,

Mehr oltunin aylading siyahtob.

Ba'zida mahtob (oydin) kasofat etti (oy yoki quyoshning tutilishi). Mehr oltunini (sariqligini), siyahtob (qoramtir, qora tovlanuvchi) qilding. Bu baytda kamdan- kam sodir bo'ladigan oy va quyoshning tutilishi haqida gap bormoqda. Sen (Ollohga murojaat) qahrining kelganda oyni tutiltirib, quyoshning sariq yuzini qora qilib, uni qorong'ulikka ko'masan. Ammo bu holat vaqtincha. Chunki senda (Ollohga murojaat) g'azab tuyg'usidan ko'ra mehrshaaqat tuyg'usi ustunroq.

Berding chu jihatqa zeb ila far,

Boshi uza tikting olti gavhar.

Ushbu jihat (tomon)ga zeb (bezak, ziynat) bilan far (porloqlik, hashamat) berding. Boshining ustida esa oltita gavhar tikting. Baytda Olloh tomonidan ona zamin bo'lmish yerning yaratilishi haqida fikr bormoqda. Sen (Ollohga murojaat) yerni juda go'zal qilib yaratding. Unga bezak va hashamat berding. Boshining ustida esa oltita (bu yerda Yer sayyorasidan tashqari koinatda mavjuda bo'lgan oltita sayyora) nazarda tutilmoqda. Yer bilan jami yettita sayyora mavjud. Ammo qolgan oltita sayyorada hayot yo'q. Tirik mavjudot yashay olmaydi. Faqatgina Yer sayyorasida hayot bor) gavhar qadading.

Ko'k atlasu bori zarhal etgan,

Anjum duridin mukallal etgan.

Ko'k atlas (osmon, falak)ni zarhal (oltin suvi yugurtmoq, zarlamoq) bilan bezading. Anjum (yulduzlar)ning duri bilan esa mukallal etmoq (bezamoq, yaltiratmoq). Olloh faqatgina yerni bezatish bilan cheklanib qolmadi, u (Olloh) yerning har bir detalini alohida bezaklar bilan ziynatladi. Osmonning ustidan zarhal suvni yugurtirdi. Osmonning bag'rini esa mayda durchalar ya'ni yulduzlar bilan bezatdi. Chindan ham tunda osmonga qaraydigan bo'lsak, mitti yulduzchalar xuddi durlardek yaltirab ko'rinadi.

Jaybi aro tugma tiyru Nohid,

Egnida tirozi Oyu Xurshed.

Jayb (kiyimning yoqasi) aro tugma Nohid (yorug' yulduz, Zuhra), egnida esa tiroz (ipak, jiyak) oy va xurshed (quyosh, oftob). Sen (Ollohgga murojaat) osmonning ustidan bir ajoyib ipak matoli kiyim kiygizding. O'sha kiyimning yoqalarini yorug' yulduzchalar bilan bezatding. Kiyimning ustiga esa oy va quyoshni qadading. Quyoshni kunduz kuni bilinadigan qilding, oy va yulduzlarni esa tunda. Bu kiyim bilan osmon juda go'zal bo'lib ketdi.

Yo'q, yo'qki, bu yetti jirmi moviy

Anda yetti chobuki samoviy.

Bu yetti jirmi moviy (yeti qat osmon). Unda yetti chobuki samoviy (yetti sayyora). Ya'ni Olloh osmonni yetti qavatdan iborat qilib yaratdi. Yetti osmonning bag'rida esa yettita sayyorani yaratdi. Baytda sehrli yetti raqamidan o'rinli foydalanilgan. Yetti sayyoradan biri bo'lmish Yer sayyorasida insoniyat uchun hayot paydo qildi. Eng katta sayyora qilib esa Yupiter sayyorasini yaratdi. Bu sayyora Yerdan ellik barobar katta. Yupiter sayyorasini shunday joylashtirdiki, ushbu sayyora Yerga xavf soladigan barcha kameta va metearid toshlarni o'ziga tortib oladi. Olloh o'zi yaratgan

mukammal olam uchun Yerni makon qilib tanladi. Uning himoyasi uchun esa qolgan oltita sayyorani yaratdi.

Kim, borchalarini foil etting,

Sayru harakatga shog'il etting.

Barchalarini (yer yuzidagi mavjudotlar nazarda tutilmoqda) foil (ishlovchi, bajaruvchi) qilding. Sayru harakat (yurish, harakat)ga shog'il (shug'ullanuvchi, mashg'ul) etding. Sen (Ollohg'a murojaat) yer yuzida yaratgan har bir mavjudotingni ma'lum bir ish bilan shug'ullanuvchi qilib yaratding. Barchasining yelkasiga ma'lum bir vazifani yuklading. Ya'ni hech bir yaratig'ing besabab paydo bo'lmagan.

Chindan ham, yer yuzidagi har bir mavjudotning o'z vazifasi bor. Oddiygina bir daraxtni olsak, u meva beradi, soya-salqin qiladi. Karbanot angidirid gazini yutib, o'zidan kislarod chiqaradi. Hayvonot dunyosini olsak ham, xuddi shu hol. Ma'lum bir hayvon turi boshqa bir turning tirik qolishi uchun xizmat qiladi va shu tariqa ozuqa zanjiri hosil bo'ladi. Demak, ko'rinib turibdiki, yaratish va yaralishdan bir muddao ko'zlangan.

Obo chu bularga ot bo'ldi,

Ul to'rt ham ummahot bo'ldi.

Obo (otalar) bularga (yaratilgan mavjudotlar nazarda tutilmoqda) ot (nom) bo'ldi. Ul to'rt (dunyoning to'rt tomoni: shimol, janub, sharq, g'arb) ummahot (onalar) bo'ldi. Ushbu baytni yuqoridagi baytlar bilan bog'lab tahlil qilishimiz zarur. Ya'ni Olloh tomonidan yaratilgan barcha narsaga osmon ota bo'ldi. Yer va uning to'rt timoni esa ona bo'ldi. Yer va osmon o'rtasidagi jamiki mavjudot ularning farzandlaridir.

Aylab bu ato, anog'a payvand,

Uch qilding arolarida farzand.

Bu ota (osmon) va ona (yer)ni bir-biriga payvand (ulamoq) qilding. Ularning o'rtalarida esa uch farzand paydo qilding. Baytda osmon va yerning Olloh tomanidan

bir-biriga nikohlangani, shuningdek ular orasida uchta uch xil farzand paydo bo'lgani haqida gapirilmoqda.

Har birining o'zgacha sifoti,

Hayvoniyu koniyu nabotiy.

Har birining sifoti (sifati) o'zgacha, bir-biridan farq qiladi. Ularning nomi hayvoniy (hayvonot dunyosiga tegishli), koniy (konga tegishli, qazib olinadigan narsalar), nabotiy (o'simlik dunyosiga tegishli). Ya'ni osmon va yerning farzandlari soni, Olloh tomonidan yaratilgan yaratilarning uch xil dunyoga tegishli ekanligi uchun uchta bo'ldi. Jamiki yaratiq uchta dunyodan bittasiga tegishli bo'ladi. Qushlar, hayvonlar, sudralib yuruvchilar jamiki jonivorlar hayvonot dunyosiga tegishli. Oyog'imiz ostidagi yerning bag'rida yotgan har bir ma'dan, tosh, qazilma boyliklari bularning barchasi koniy dunyoga tegishli qilib yaratildi. Gullar, daraxtlar, o'simliklarning bari esa o'simlik dunyosiga tegishli deb belgilandi.²⁰

Andoq chu tuzildi kadxudoliq,

Bu nav o'ldi ato-anoliq,

Endi qarabsizki, osmon va yerning o'rtasida bir oila paydo bo'ldi. Ya'ni ularning orasida kadxudoliq (uylanganlik, ro'zg'or) tuzildi. Natijada esa biri ota, biri ona bo'ldi. Shoir baytda tashbeh san'atidan shunday ustalik bilan foydalanganki, kishi benihoya hayratda qoladi. Osmon va yerning ota-onaga o'xshatilishi, ularning nikohlanishi va o'rtalarida uch farzandning paydo bo'lishi.

Bir kimsaga to'rt agar tarabdur,

Yetti aro to'rt bas ajabdur.

Bitta kimsaga to'rt bora tarab (xursandlik, shodlik)dir. Osmonning yetti qavati aro to'rt bas (yerning to'rt tomoni) ajab (qiziq, taajjub)dir. Ushbu nikoh (osmon va yerning nikohlanishi)dan yerning to'rt tomoni xursand bo'ldi, shodlandi. Ammo osmonning yetti qavati hayratga tushib, ajablandi. Yerning xursand bo'lishiga sabab,

²⁰ Алишер Навоий. МАТ.20 томлик. 9 том. Тошкент: Фан, 1991

ular orasidagi uch farzand ham yerning bag'rida tug'ildi. Osmonning yetti qavati esa bu uch farzandni shunchaki, yuqoridan turib kuzatish bilan cheklandi. Navoiyning yerni ona qilib tanlaganligi bejizga emas, chunki azaldan yerga nisbatan "ona yer", "ona zamin" kabi tashbehlar qo'llanilgan.

Har maylg'a toqding, ikki zanjir,

Qilding laqabin qazovu taqdir.

Har maylga ikta zanjir taqding. Ularning birini nomini qazo (biror voqeaning yuzaga kelishi, tasodif), ikkinchisining nomini esa taqdir (faraz, ehtimol, peshonadan ko'rish) deb nomlading. Sen (Ollohga murojaat) o'z yaratqilaring bo'lmish osmon va yerning bo'yniing ikta zanjir taqding. Ularning farzandlari o'z boshiga keladigan xursandchilik va g'am- qayg'uni ular mendan ko'rishmasin, yoki peshonamda bor ekan deb o'ylashsin, yoki bo'lmasa shunchaki tasodif deb hisoblashsin deding. Sen har bir narsani shunchalik mukammal yaratdingki, har bir narsa uchun ularning o'zlarini javobgar qilib qo'yding. Toki yaratgan mavjudotlarim hech narsani mendan ko'rishmasin, faqat va faqat o'zlaridan ko'rishsin deding.

Gardunni sen aylading sabuk sang,

Davronni sen aylading kuhan lang.

Gardun (falak, osmon) ni sen sabuk sang (toshi yengil, yengiltabiat) qilding. Davron (davr, zamon) ni sen kuhan lang (og'ir, qimirlamaydigan) qilding. Ko'rinib turibdiki, bu baytda ham sen deya Ollohga murojaat qilinmoqda. Ya'ni Olloh osmonu falakni qushdek yengil, beqaror qildi. Yerni esa og'ir, qimirlamaydigan qilib yaratdi. Osmon doimo harakatda, aylanib turadi, bulutlari suzib yuradi. Ammo yer azaldan qanday yaratilgan bo'lsa, hamon o'shanday va aslo joyidan qimirlamaydi.²¹ Baytda osmon va yerning o'ziga xos sifatlari tazod san'ati yordamida berilgan.

²¹Алишер Навоий. МАТ.20 томлик. 9 том. Тошкент: Фан, 1991

Gar bo'lsa sipehru arz bir-bir,

Chun sendin erur senga ne tag'yir.

Agar sipehr (osmon, falak), arz (yer, zamin) bir bo'lsa, senga nima tag'yir (o'zgartish). Bu baytda ham Ollohga murojaat qilingan. Agar osmon bilan yer bir bo'lsa ham, bu sening irodang bilan bo'lgan bo'ladi. Shuning uchun ham sening qiyofangda aslo o'zgarish paydo bo'lmaydi. Chunki bilasan, hatto yer yuzidagi bir giyoh ham sening karamingsiz tuproqni yorib chiqolmaydi.

Var topsa baqoyi lonihoyat

Kim, sendin erur o'shul inoyat.

Var (agar) baqoyi lonihoyat (boqiylik) topsa. O'shal inoyat (mehribonchilik, marhamat) sendandir. Bilamizki, yer yuzida hech bir narsa abadiy emas, hamma narsa ham bir kun kelib bu foniyl dunyoni tark etadi. Faqatgina Olloh abadiy va hamisha mavjuddir. Agar mobodo biror narsa boqiylikka erishsa, bu faqatgina Ollohning xohishi bilangina amalga oshadi. Yer va osmon bu dunyoda abadiy mavjuddir. Ularning abadiy bo'lishini esa Olloh istadi.

Har shohki andin el haroson,

Yo'q qilmoq ani qoshida oson.

Yer yuzida shunday shohlar borki, ulardan el haroson (qo'rquvchi, qo'rqq). Ularni yo'q qilish elning qoshida oson. Olloh yaratilqlarining eng mukammali va oliysi bu insondir. Olloh insonlarni ikki toifaga ajratdi: yaxshi va yomon. Ba'zilarini shoh qildi. Ba'zilarini esa gado. Ba'zan shunday insonlarni yurtga shoh qilib qo'ydi, el qo'rquv ichida qoldi. Ammo Olloh uchun bunday insonlarni shohlikdan tushirib, el ichra sharmanda qilish hech qanday qiyinchilik tug'dirmaydi. Unda nega Olloh bunday yovuz kimsalarni shoh qilib tanladi degan odatiy savol tug'iladi. Olloh inson zotining yovuzlikni, qabohatni ko'rmasa, yaxshilik va ezgulikning qadriga yetmasligini juda yaxshi biladi. Shuning uchun ham bu dunyoni insonlar uchun sinovli, o'tkinchi dunyo qilib yaratdi.

Yo qaysi gadoki noni yo'q-yo'q,

Shoh etsang anikim, etay yo'q.

Yo qaysi gadoki noni yo'q. Agar uni shoh etsang, men uni yo'q etay. Baytda shoir Ollohga murojaat qiladi. Yer yuzida shunday gadolar borki, hatto yeyishga noni yo'q. Ammo sen ularni mamlakatga shoh qilib tayinlasang, ularni yo'q qilay. Baytda (shoh va gado) so'zlari tazod san'atini hosil qilgan.

Zohidki ulusqa qilg'ay irshod

Solsang tomug' ichra kimga irod?

Zohid (dunyoviy ishlardan kechib, o'zini toat ibodatga bag'ishlagan shaxs) ulus (xalq) ga irshod qilmoq (to'g'ri yo'l ko'rsatmoq). Tomug' (do'zax) ichra solsang kimga irod (keltirish). Sen (Ollohga murojaat) xalqqa, to'g'ri yo'ldan adashgan osiy bandalaringga to'g'ri yo'l ko'rsatishi uchun yer yuzida zohidlar toifasini yaratding. Ammo shu zohidlarni do'zax ichiga solib ko'rchi, qani kimga irod keltirishar ekan.

Fosiqki erur bor ishi muhmal,

Yorliqasang oni kimga mudxal?

Fosiq (yomon ishlar qiluvchi, yomon yo'lga yuruvchi) larning barcha ishlari muhmal (ma'nosiz). Yorliqasang (maqtamoq, olqishlamoq) oni kimga mudxal (kirish, kirar joy). Sen (Ollohga murojaat) yer yuzida fosiqlarni ham yaratding. Ammo ularning qiladigan barcha ishlari ma'nosiz va o'rinsizdir. Ularni kimga maqtasang, ular o'sha joyga kirib ketaverishadi.

Bas olam ichini aylading qon,

Bir luqma yutarg'a yutti ming qon.

Bo'ldi yetar olamning bag'rini qon qilding. Bir luqma (bir yutum ovqat) yutish uchun ming marotaba qon yutdi. Bu baytda ham Ollohga murojaat qilingan. Yer yuzida turli toifa insonlarni yaratib, yerning bag'rini qonga to'ldirding. Insoniyatni esa bir

yutum ovqat yutishi uchun ming marta qon yutdirding. Endi bo'ldi qil. Olamni tinch qo'y. Ikkinchi misrada tazod san'atidan unumli foydalanilgan.

Bas johil erurki beg'amu ranj,

To'ktung etagiga maxzanu ganj.

Bas johil (nodon, bilimsiz) erurki, beg'am (g'amsiz, tashvishi yo'q)u ranj (mashaqqat). To'kning etagiga maxzan (xazina, qimmatli mol saqlanadigan joy)u ganj (boylik, xazina). Bo'ldi yetar. Dunyoda adolatsizlik ko'payib ketdi. Bilimsiz, nodonlarni g'amsiz, tashvishsiz qilib yaratding. Bu ham yetmagandek ularning etagiga boylik, xazinalarni to'kib tashlading. Baytda (maxzan va ganj) so'zlari tanosub san'atini hosil qilgan.

Bu ishta ne bilsun el kamohiy,

Ne erkani hikmati ilohiy.

Bu ishda el kamohiy (mohiyat, haqiqat)ni qayerdan ham bilsin. Aslida hikmati ilohiy (xudoga tegishli, ilohiy, diniy hikmatlar) nima ekanligini qanday tushunsin. Bu baytda ham Ollohga murojaat mavjud. Ya'ni osiy, omi el sen haqingdagi va sening ilohiy kitoblaring haqidagi haqiqatni, mohiyatni qayerdan bilsin. Ularga bu narsalarni kimdir yetkazmasa, kimdir tushuntirmasa ular qanday tushunsin. Ularga seni anglashlari va qalban senga yetishishlari uchun imkon ber.

Lekin bu taraf ko'ngulga yo'ldur

Kim, harneki aylading ish uldur.

Bu taraf ko'ngilga yo'ldir. Har qnday ish qilsang ham, ul to'gridir. Ko'rinib turibdiki, bu baytda ham Ollohga murojaat qilingan. Sen qachon va qanday ish qilishingdan qat'iy nazar ul ishing to'g'ri va o'rinlidir. Sen bu ezgu ishlaring bilan o'z bandalaringning ko'ngliga yo'l topding. Har bir qilgan amaling, ma'lum bir hikmatga asoslangan bo'ladi.

Kimni nedin aylading navosoz,

Topqon anga ne ko'p erdi, ne oz.

Kimni nimadan navosoz (nasib, bahra) aylading. Ularning (Ollohning bandalari) topgani na ko'p va na oz edi. Yer yuzidagi insonlarni turlicha ko'rinishda, turlicha qiziqishlar bilan yaratding. Kimgadir farzand bermading, kimgadir esa davlat. Kimnidir sog'lom qilding, kimnidir umrbod to'shakka mixlading. Hech bir insonni dunyo ne'matlaridan to'liq bahramand qilmading, hech kimni to'laligicha mukammal qilib yaratmading, qaysidir jihatini kemptik qilib qo'yding. Shunday go'zal dunyoni barcha uchun "bir kam dunyo" qilib yaratding. Bandalaring esa bu dunyoda qo'lgan kiritgan narsalarini na ko'p deb bildilar, na oz.

Har kimga ne berganing bas erdi,

Andin ko'pu oz kerakmas erdi.

Har kimga nimaiki bergan bo'lsang, endi bas qil. Ularga berundandan kami ham, ortig'i ham kerak emas. Sen (Ollohga murojaat) dunyoni muvozanatda ushlab turish uchun har kimga turlicha imkon va vaqt berding. Bandalaringga shuncha berganing yetadi. Endi ularga bundan ko'pi ham, ozi ham kerak emas. Ular boriga shukr, yo'g'iga esa sabr qilishni o'rganishsin.

Topqong'a qanoat ulki qilmas,

O'z maslahatini sencha bilmas,

Topganiga qanoat qilmas. O'z maslahatini sendan ko'rmas. Baytda yana Ollohga murojaat qilingan. Ey Olloh, bandalaringga me'yorida ortig'ini hech qachon berma. Aks holda ular boriga qanoat qilishmaydi. O'zlarida boridan ortig'ini istab qolishadi. Endi qarabsanki, ular ko'proq narsani qo'lga kiritish uchun har nimaga tayyor bo'lib qolishadi. Insoniylik qiyofalarini yo'qotishadi. Sening maslahatingga quloq solishmaydi. Shuning uchun inson o'ziga shukr qiladi, me'yordan ortig'ini hazm qilolmaydi.

Bizdin neki kelsa bejihatdur,

Sendin neki bo`lsa maslahatdur.

Shoir ushbu baytda bizdin (odamzoddan) nimaiki bo`lsa, ularning barchasi bejihat (sababsiz, o`rinsiz)dir. Ammo aksincha Ollohdan bizga neki kelsa bu bejiz, behikmat emasligiga urg`u bergan. Ya`ni Olloh bizga og`ir sinov yuboradimi yoki mukofot beradimi bunda o`ziga xos hikmat borligini anglab, inson sinovli kunlarga sabr qilib, baxtli kunlariga esa shukr qilishi lozimligini uqtirgan.

Tasavvuf ahllari orasida Olloh yaratgan maxluqot olami ichida eng sharaflisi INSON ekanligini bot-bot tilga olinadi²²:

Doyim qilibon savol varzish,

Xoni karamingdin ofarinish.

Navoiy baytda doyim savol berishni varzish (ko`nikma, odat) qilib, xon (dasturxon) karam (marhamat, saxiylik)ingdan insoniyatni ofarinish (yaratilish, vujudga kelish)ga munosib deb topding, deya o`z mulohazalarini ifodalagan. Ya`ni Ollohnin marhamati sababli, uning karamidan inson degan mavjudot yaratildi va u barcha yaratiliclardan ustunligi bilan ajralib turadi.

Ulug` tangrining qudrati oldida hamma narsa: oyu, quyosh, kunu tun va ularning o`zaro almashinishi ham hech bir qiymatga ega emas, ya`ni ulug` Tangri uchun hech bir qiyinchilik tug`dirmaydi:

Kunduz sanga bir gadoyi rusi,

Xursheddin egnida kadusi.

Navoiy kunduzga ta`rif berar ekan tashxis (jonlantirish) san`ati asosida chiroyli va ta`sirchan fikr bayon etadi. Olloh uchun kunduz bir gado, xurshed (quyosh, oftob) dan egnida kadu (gadolarining tilanib topgan aqchalarini solish uchun bo`yinlariga osib oladigan qovoqlari) bor.

²²Қуръони карим. Ўзбекча изоҳли таржима. Т.:1992. – Б.283.

Tunni ta'riflar ekan, uning qoraligi, qorong'uligi uchun chiroyli va o'rinli tashbeh (o'xshatish) hamda tashxis (jonlantirish)dan foydalangan:

Tun dargahingga tilanchi zangi,

Egnida terisidur palangi.

Tun ham sening (Ollohning) dargohingda bir zangi (qora tanli) tilanchidir. Tunning egnida esa palangi (qoplon) terisi. Shoir nazdida kun va kun almashinishi va o'z o'rnida tirishi uchun misoli bir tilanchi, gadodek tilanadi. Mazkur tushunchalar bilan bogliq fikrlar Qur'oni Karimning "Yosin", "Moida" kabi bir qator suralarda ham keltirilgan.²³

Navoiy kunu tun ta'rifidan so'ng daryo va tog'lar va ualrning baybati ulug' bo'lsa-da, Olloh oldida hech bir qudratsiz ekanligi bilan bog'liq baytlar keltiriladi.

Daryo sanga tolibi navola,

Kishti kafida yig'och piyola.

Daryo ham sen (Olloh) dan tolib(talab qiluvchi, izlovchi) navola (in'om, ehson, nasiba, hissa) izlovchi. Kishti kaf (may quyiladigan kaft)ida esa yog'och piyola. Baytda daryoning doimo to'lib oqishi uchun Olloh tomonida yomg'irning hadya qilinishi zarur bo'lganligi uchun unga(daryoga) nisbatan in'om, ehson talab qiluvchi sifati qo'llanilgan. Uning (daryoning) qo'lidagi yog'och piyola ham suv solib to'ldiriladigan idish orqali daryo o'zining suvga to'lishi uchun Ollohdan umidvor bo'lishiga ishoradir. Bu bilan shoir hamma yaratilgan yaratqlar Olloh izmida ekanligiga urg'u beradi.

Bizning nazarimizda qudratli, ulug'vor bo'lgan tog'lar ham Tangri taolo oldida o'z ulug'vorligini yo'qotadi, his qilmaydi:

Tog'lar tutub nechukki soyil,

Ochib etagin tilarga moyil,

²³Қуръони карим. Ўзбекча изоҳли таржима. Т.:1992. – Б.269.

Tog`lar ham soyil (so`rovchi, istovchi)dir. Shoir tashxis (jonlantirish) asosida tog`lar soyil (so`rovchi, istovchi) bo`lganligi uchun etaklarini ochib bir nima tilab o`tiradilar go`yo. Baytda tog` yonbag`irlarining yastanib yotishi, xuddi etagini ochib Ollohdan nimadir so`rab o`tirgan holatiga tashbeh qilingan.

Olloh – qudratli zot. Barchaning panohi, homiysidir:

Ya`ni bori uzradur panohing,

Bor ulchaki bor gardi rohing.

Navoiy mazkur baytda (Olloh) barcha yaratilgan uchun panoh (suyanchiq, homiy) ekanligini, ular esa Ollohnin gardi rohi (atrofingda aylanib yuruvchi, kezib yuruvchi) mavjudotlaridir, deya Olloh qudratiga, barcha narsalar uning izmida ekanligiga ishora qilgan. Ayni masalalar Qur`oni Karimdagi “Baqara” suraning 116-oyatida yoritilgan: “...<sup>24</sup>Albatta osmonlaru yerdagi barcha narsalar Unikidir. Hamma unga bo`ysunuvchidir”.

Ma`lumki, Tangri taoloning qudrati bilan ikki olam (foniyl va boqiy) yaraldi. Uning o`zi ikki olam sultonidir:

Mulkung iki bog`i ikki olam,

Sultonlig` erur sanga musallam.

Navoiy ham baytda mulkingdagi ikki bog` bu ikki olamdir, ularga senga (Ollohgaga) musallam (taslim bo`lish, topshirilish) xos, ammo sen ularga (ikki olamga va ulardagi jamiki ashyolarga) sultondirsan. Shoir ikki olam: boqiy va foniyl dunyoni ikki bog`ga tashbeh etgan.²⁵

Shoir ikki olamni ikki bog` deb atagan bo`lsa, keyingi baytda o`z mulohazalarini davom ettirib, olamdagi oy va quyoshning qiyosini keltiradi:

²⁴Қуръони карим. Ўзбекча изоҳли таржима. Т.:1992. – Б.262.

²⁵Алишер Навоий. МАТ.20 томлик. 9 том. Тошкент: Фан, 1991

Bog`ing iki vardi mehr ila mah,

Ne bog`u ne vard, allah, allah.

Ma'lumki, bog`da vard (atirgul) bo`lishi tabiiy. Shoir shu tabiiylikka rioya qilib, mehr (quyosh) bilan mah (oy) bog`dagi ikki vard (atirgul) ga tashbeh qilgan. Mazkur misrada bog` va vard hamda mehr va mah qo`shaloq tanosub fikr izchilligi va ta'sirchanligiga xizmat qilgan. Baytning ikkinchi misrasida esa Navoiy "Ne bog`u ne vard allah, allah" deya Ollohning barcha yaratirlari Uning izmida ekanligidan, Tangri taoloning qudratidan hayratga tushadi.

Hatto aql ham Olloh zot va sifati oldida hayratda:

Shonin bilmay xiradg`a anduh,

"Jallat olouhu va sha'nuh"

Navoiy Tangri taoloning azmu qudratidan xirad (aql, fikr) o`z shon (qadr, daraja)nini bilmasdan anduh (g`am, qayg`u) chekadi, deya tashxis (jonlantirish) san'ati orqali mohiyatni ta'sirli bayon etgan. Baytning ikkinchi misrasida "Jallat olouhu va sha'nuh (uning ne'matlari va qadri ortsin) mazmundagi duo keltirilgan."²⁶

Mazkur xayrli duo bilan shoir o`z hamdiga yakun yasaydi. **Dostonda keltirilgan hamd bobi doston mazmuniga bog`liq holda yaratilganligini ko`rish mumkin.**

²⁶Қуръони карим. Ўзбекча изоҳли таржима. Т.:1992. – Б.415.

2.4. “Sabba’i sayyor”da hamd

“Xamsa” tarkibidagi to’rtinchi doston “Sab’ai sayyor” ham Ollohning maqtovi ya’ni hamd bilan boshlanadi:

Ey siposing demakda el tili lol,

Elga til sendin o’ldi tilga maqol.

Ey (Ollohga murojaat) sipos (maqtash, shukr aytish, hamd)ingni aytishga elning tili lolu hayron. Elga til sening maqol (so’z, nutq)ingdan paydo bo’ldi. Baytda shoir bevosita Ollohga murojaat qilgan. Ya’ni sening madhingni qancha kuylasam ham, sen haqingda dostonlar bitsam ham bularning bari sening ta’rifing uchun ozlik qiladi. Senimaqtash, seni alqash uchun mening tilim lol va ojiz. Elga, insoniyatga nutq so’zlash qobiliyatini ham sen berding. Aks holda, inson so’z so’zlay olmas edi. Sening (Ollohning) so’zing shunchalik qudratliki, birgina “yaral” degan so’zingdan o’n sakkiz ming olam yaralgan.

Sendin insong’a toru pudi jasad

Jasad ichra ko’ngul, ko’ngulda xirad.

Sendan (Ollohga murojaat) insonga jasad (gavda, jism) toru pud (o’rish-arqoq) bo’ldi. Bu jasad ichra ko’ngil, ko’ngilda esa xirad (aql, zehn) paydo bo’ldi. Ushbu bayt yuqoridagi baytning uzviy davomidir. Insonga jism ham Olloh tomonidan berildi. Dastlab bu jism bo’m- bo’sh edi, faqatgina shakli bor edi, xolos. Keyin Olloh bu bo’sh jismning ichuga dastlab ko’ngilni joylashtirdi, so’ngra esa ko’ngilning ichiga aqlni joyladi. Qarabsizki, insonning hissiz, bo’sh tanasida ko’ngil (og’riqni,

azobni, shodlikni, baxtni his qilish) va atrofida bo'layotgan voqea hodisalarni tushunib yetishi uchun aql paydo bo'ldi.²⁷

Sen qilib farq uyida pinhoni

Qorgohi dimog'i insoniy.

Sen (Ollohga murojaat) dastlab, farq uyida barchasini pinhon (yashirin, ko'zga ko'rinmaydigan) qilding. Bu jasadning dimog' (ruhiy holat, tabiat)ini esa insoniy (insonga xos) qilib yaratding. Sen (Ollohga murojaat) sen ushbu tanani barcha farishtalar, jinlar umuman olganda tirik mavjudotlardan yashirin holda yaratding. So'ng bu tanaga ko'ngil va aqlni joylashtirding, uning tabiatini, xarakterini insonga xos qilib qo'yding. Shu tariqa sen "HAZRATI INSON" degan maxluqotni yaratding. Barcha farishtalarni unga itoat ettirding. Yaratilarning orasida eng oliysi va mukammali qilib insonni tanlading.

Tund sendin sipehr Bahromi,

Changzan Zuhraning Diloromi.

Lug'atga e'tibor qaratsak: Sipehr (osmon, gumbaz) Bahrom (1. Mirrix (Mars) sayyorasi 2. Qadimgi Eron shohlaridan birining nomi) sendan tund (shiddatli, g'azabli). Zuhra (cho'lpon yulduzi-Venera (shoirilar osmon cholg'uchisi, sozandasi deyishadi) ning Diloromi changzan (chang chaluvchi, changchi). Osmon Bahromining sendan jahli chiqqan. Mars sayyorasining rangi qizil bo'lganligi uchun ham qonli sayyora deb nomlashadi. Asarning bosh qahramoni bo'lmish Dilorom esa chang chalish borasida mahorati sababli Venera sayyorasiga o'xshatilgan. Baytda tashbeh san'atidan unumli foydalanilgan.

Chekting etganda dahr bunyodin,

Yetti gunbad sipehri minodin.

Dahr (olam, dunyo)da yettita gunbad sipehri minodin (shisharang, ko'k gumbaz) bunyod (yaratmoq, poydevor qurmoq) qilding. Aynan shu baytdan boshlab,

²⁷ Алишер Навоий. МАТ.20 томлик. 10 том. Тошкент: Фан, 1991

dostonning syujeti tomon qadam qo'yiladi. Ya'ni asardagi asosiy detallardan biri bo'lmish yettita ko'k gumbazli saroyning bunyod etilganligi haqida fikr bormoqda. Bundan tashqari shu baytdan boshlab, Navoiy "sehrli" yetti raqamiga murojaat qiladi.

Sun'ung etti bu yetti koxi rafi,

Najm gavharlari bila tarsi.

Sun'ung (yaratishing, qudrating) bu yetti koxi rafi (yetti qat osmon)ni bunyod etti. Najm (yulduz) gavharlari bilan tarsi (biror narsaga ziynat berish uchun qimmatbaho toshlar o'rnatish, bezash) qilding. Baytda Ollohning qudrati sababli yetti qavat osmon paydo bo'lganligi va osmonning yuzini gavhardek porlovchi mitti yulduzchalar bilan bezatganligi haqida so'z bormoqda.

Yetti afsona borchasi dilband,

Ikkisi bir- biriga yo'q monand.

Yettita afsona (hikoya,doston)ning barchasi dilband (ko'ngilni bog'lovchi, dilga yoqadigan), iktasi bir-biriga monandi (o'xshashi) yo'q. Ana endi yettita qasrdagi yettita domishmand shoh Bahromga hikoya aytib berishni boshladi. Hikoyalarning har biri juda ajoyib, uni eshitgan odam mahliyo bo'lib qoladi. Hech qaysi hikoya bir-biriga o'xshamaydi va biri-birini takrorlamaydi.

Yetti gunbad agarchi minorang,

Yetti afsona lek rango-rang.

Garchi yettita gunbad (gumbaz) minorang (shisharang, ko'k) bo'lsada, yettita afsona (hikoya, doston) rango- rang. To'g'ri yettita qasrning gumbazlari bir xil rangda ya'ni ko'k. Ammo unda yetti donishmand tomonidan aytilayotgan hikoyalar turlichadir.

Sen chekib murtafi yetti aflok,

Munhat aylab bu tiyra markazi xok.

Sen (Ollohga murojaat) murtafi (yuksak, baland) yetti aflok (yetti qat osmon) chekib, munhat (pastlik, yer osti) aylab bu tiyra (qorong'u, qora) markazi xok (olamning

markazi). Sen ba'zan yetti qat osmon kabi yuksalasan. Ba'zan esa qorong'u yer ostiga kirib ketasan. Baytda (murafi va munhat) so'zlari tazod san'atini hosil qilgan.

Yetti gardun demayki yetti lagan,

Har biri ichra sham nur afgan.

Yetti gardun (falak, osmon) demayki yetti lagan (shamdon, sham qo'yiladigan yassi idish). Har biri ichra sham nur afgan (nur sochuvchi) bo'lib turibdi. Yettita qasrning xonalari ichra shamdonlar o'rnatilgan. Shamdondagi shamlar esa har tarafni yoritib, nur sohib turibdi. Shoh Bahrom saroyga, hikoya tinglash maqsadida tunda keladi. Tunda esa xonani shamlar yoritib turadi.

Har lagan durji kavkabafruzi,

Kavkabi gavhari shabafruzi.

Har lagan (shamdon, sham qo'yiladigan yassi idish)ning durj (og'iz)i kavkabafruz (yorituvchi, oydinlashtiruvchi yulduz). Kavkab (yulduz)i gavhar (qimmatbaho tosh)i shabafruz (kechani yorituvchi). Sham o'rnatilgan har bir shamdonning og'zi shu darajada yorug'ki, xuddi yorug' yulduzga o'xshaydi. Shamdonni bezatib turuvchi qimmatbaho toshlar shamning yog'dusi sabab o'zgacha qiyofa kasb etgan va qorong'u xonani yoritib turibdi. Baytda tashbeh san'atidan unumli foydalanilgan.

Har birisida o'zga xosiyat,

O'zgacha rangu o'zga mohiyat.

Har birisida o'zgacha xosiyat (xususiyat, ta'sir), o'zgacha rangu o'zga mohiyat (tub ma'no, negiz). Ushbu baytda yetti saroy haqida so'z ketmoqda. Haftaning yetti kuniga moslab qurilgan bu yetti saroyning har birida o'zgacha xususiyat, ta'sir bor. Bundan tashqari bu saroylar turli ranglarda, ularning turlicha rangda qurilganligining o'zida ham o'zgacha bir mohiyat bor. Aynan shoh Bahromning hikoya tinglashni shanba kuni qora rangli saroydan boshlab, juma kuni oq rangli saroyda yakunlaganligidan biz shohning zulmatdan, qorong'ulikdan yorug'lik sari intilayotganligini bilib olamiz.

Ul yetti kavkabi jahonpaymo,

Ne jahon, balki osmonpaymo.

Ul yetti kavkab (yulduz) jahonpaymo (jahonni kezuvchi, jahongashta). Ne jahon, balki ular osmonpaymo (osmonni kezuvchi)dirlar. Baytda shoir yetti yulduz deb yetti donishmandni aytmoqchi. Bu yetti donishmand xuddi osmondagi yulduzlar kabi jahonni kezib yuruvchi sayyohlardir. Nafaqat jahonni balki, osmonni kezib yuruvchilardir. Donishmandlar turli joylarda bo'lib, turli taqdirlarni ko'rib, o'zlariga eng ma'qul tushgan hikoyani shohga so'zlab berishadi. Baytda ruju san'atidan unumli foydalanilgan.

Kim yetti ko'kta keldilar soyir,

Suvda andoqki siymgun toyir.

Yettita ko'k (yetti qavat osmon)da soyir (sayr etuvchi, kezuvchi)dirlar. Suvda esa siymgun toyir kumush rangli qush, oq qush)dirlar. Hikoya aytish uchun kelgan yetti donishmand ko'kda xuddi yetti qavat osmonni kezuvchi sayyoh kabi dirlar. Suvda esa oqqush misoli suzuvchidirlar. Ular har ishda mohir va so'z so'zlashga so'zomondirlar. Ushbu baytda tashbeh san'atidan unumli foydalanilgan.

Rahmatingdin ziyo tutub har sham,

Bir shabistonni yorutub har sham.

Rahmat (marhamat)ingdan ziyo (nur, yorug'lik, shula) tutub har sham, bir shabiston (kechki yotoqxona, ichki haram) ni yoritadi. Bu baytda Ollohga murojaat qilingan. Ya'ni sening marhamating sababli shamlar o'zidan nur taratmoqda. Ularning yog'dusi esa shoh Bahrom hiloya tinglash uchun tashrif buyuradigan har bir saroyning qorong'u kechki yotoqxonasini yoritib turibdi. Bu shamlar nafaqat qorong'u xonani, balki shohning g'amgin ko'nlini ham ravshan qilmoqda.

Sham yo'q, yetti lu'batlari raqqos,

Haftaning har kuni birisiga xos.

Sham yo'q, yetti lu'batl raqqos (go'zal, sevikli raqqos). Haftaning har kuni birisiga xos. Xonani yoritib turgan narsa aslida sham emas, balki yetti go'zal raqqosdir. Haftaning yetti kuni yetti donishmanddan tashqari, yetti go'zalga ham aloqadordir. Har bir go'zal o'z saroyining rangi qanday bo'lsa, o'sha rangdagi libosda shohning huzuriga chiqadi. Saroydagi har bir detal saroy qaysi rangda bo'lsa, o'sha rangda bo'ladi.

Haftavu oyu yilni tez etting,

Umr ila ishlarin sitez etting.

Hafta, oy va yillarning o'tishini tezlashtirding. Umr (yashash, hayot) bilan ishlarin sitez etmoq (janjal qilmoq, urush qilmoq). Ushbu baytda Ollohga murojaat qilinmoqda. Ya'ni oyu yil, haftalarni tezlashtirding. Ularga (insoniyat nazarda tutilmoqda) bu hayotni berib qo'yib, qayerda qanday xato qilishlarini kuzatib turding. Shu orqali ularning ishlarini nazorat qilding.

Tunu kun adhamiyu ashhabini,

Charxi tavsanning ikki markabini.

Tunu kun adham (qora to'riq ot)iyu ashhab (oqimtir, kulrang ot)ini, charxi tavsan(osmoning sho'x, o'ynoqi oti)ning ikki markab (ulov, miniladigan hayvon)ini. Baytda oq va qora otlar kunning qismlari kun va tunga o'xshatilgan.²⁸ Sen (Ollohga murojaat) kun va tunning qora, oq otlarini, osmonning ikki ulovini egallab olding. Baytdagi ulovlar majoziy ma'noda qo'llanilgan.

Kecha-kunduz shitob aro solding,

Tunu kun iztirob aro solding.

Kecha-kunduz shitob (oshiqish, shoshilish) aro solding, tunu kun iztirob(beqarorlik, tinchsizlik) aro solding. Ushbu bayt yuqoridagi baytning mantiqiy davomidir. Sen (Ollohga murojaat) kecha-kunduzni shoshiltirding, natijada hafta, oyu yillar xuddi suvdek tez oqib o'tib ketdi. Bu ham yetmagandek, tun va kunni beqaror qilib

²⁸ Алишер Навоий. МАТ.20 томлик. 10 том. Тошкент: Фан, 1991

qo'yding. Baytda tun va kun tezlik bilan o'tib ketganligi uchun ham, chopqir, oq va qora otlarga o'xshatilgan. Bu esa tashbeh san'atini keltirib chiqargan.

Yo'q edi odamiki bor etting,

Kishilik birla e'tibor etting.

Na ko'kda va na yerda odamzotdan hech qanday asar yo'q edi. Ammo sen (Ollohga murojaat) odamzotni yaratding. Unga shakl-shamoyil, oyoq-qo'l, ko'z-qosh, aql, shodlik va qayg'uni his etuvchi yurak ham berding. Oxirida esa bu jonsiz tanaga ruh ya'ni jon kiritding. Insonni loydan yasading. Buning uchun tuproqqa o'ttiz to'qqiz kun ga'm-qayg'u yomg'irini, bir kun shodlik yomg'irini yog'dirding. Shu tariqa yer yuzida kishilik jamiyatini paydo qilding, **deydi**.

Yo'q ham etsang ani-o'q etgungdur,

Bor qilg'ungduru yo'q etgungdur.

Yer yuzi tugul, butun koinotda insondan nishon yo'q edi. U yo'q edi, sen uni bor qilding. Agar istasang o'zing barcha tirik jonzotlardan mukammal qilib yaratgan insonni istagan vaqtingda yo'q qilasan. Baytda tazod san'atidan unumli foydalanilgan.

Adam erkanda aylamak mavjud,

Bo'lsa mavjud qilmog'ing nobud.

Adam (yo'q, yo'qlik) bo'lganda mavjud (bor) aylading. Mavjud qilgan narsangni nobud (yo'q qilmoq, yo'qotmoq) ham qila olasan. Ushbu bayt yuqoridagi baytning mantiqiy davomidir. Ya'ni Olloh istadi: yo'qdan bor qildi. Yana faqatgina o'zi istasa borni yo'q qila oladi.

Bu ish o'lmoq qabul yo rad anga,

Aqli bo'lg'on bilurki yo'q had anga.

Bu ishni u (Olloh nazarda tutilmoqda) istasa qabul qiladi, istasa rad etadi. Aqli bo'lgan banda bilurki, unga (Olloh nazarda tutilmoqda) had (chek, chegara) yo'q.

Oллоҳ shu darajada qudratliki, uning chek-chegarasi yo'q. Aqli bo'lgan banda buni biladi. Oллоҳ insonlarga abadiy hayotlarini qanday bo'lishini tanlash imkonini o'zlariga qoldirmasdan, istasa o'zi hal qilishi mumkin. Hech kim bunga qarshi chiqa olmaydi.

Aqlning bor ishi tabohi o'lub,

Andakim hikmati ilohiy o'lub.

Aqlning barcha ishi taboh (xarob, buzilgan) o'lub (bo'lmoq), andakim hikmati ilohiy (ilohiy sir, falsafa) bo'lib. Inson aqli yetgan narsalar bari xarob bo'ldi, ya'ni ular to'g'ri emas. Bu bayt orqali shoir: “ Oллоҳning ilohiy bir falsafasi bor. Uni inson zoti anglab yetolmaydi. Oллоҳ insonni bejiz yaratmadi, bejizga faqat ungagina o'ylash, fikrlash, his qilish, nutq so'zlash qobiliyatini bermadi” demoqchi.

Makmanidinki kunduz uchqay bum,

Uchishidin amo erur ma'lum.

Makman (xilvat, qorong'u joy)da kunduz uchsa ham bum (boyo'g'li, boyqush), uning uchishidan amo (ko'rlik)i ma'lumdir. Boyo'g'li qush ham tungi qush. Asosan xilvat, kimsasiz joylarda in quyadi. Bu qush kunduz kuni ucholmaydi, mobodo uchsa ham, xato uchishi uning ko'rligini bilintirib quyadi.

Bum zulmoniy o'ldi pinhoni,

Ko'r etar oni mehri nuroniy.

Bum (boyo'g'li, boyqush) doim zulmoniy (zulmat, qorong'ulik)da pinhoni(yashirin). Uni mehri nuroniy (nurli quyosh) ko'r qiladi. Boyqush hamisha qorong'u joylarda hammadan yashirinib yashaydi, faqatgina kechqurun uchadi. Agar kunduz kuni uchsa nurli quyosh uning ko'zlarini ko'r qiladi.

Sensan ul mehri beadilu badal

Kim, sanga matla o'ldi subhi azal.

Sensan (Ollohga murojaat) mehri beadil (tengi yo'q, o'xshashi yo'q), kim senga(Ollohga murojaat) subhi azal (tong payti) matla (quyoshning chiqish joyi). Ollohim o'zing yaratguvchi, buyuk zotsan. Gunohkor, osiy bandalaringga nisbatan kechirimli va mehribonsan. Sening mehringni cheksizlikda hech narsaga qiyos etib bo'lmaydi. Mehribon va rahmdilsan. Mehringning issiqligi quyoshning haroratini eslatadi. Kim sen uchun tong payti matla vazifasini bajardi.

Chunki ul subh nurung etti zuhur,

O'ylakim, tiyra shom jabhai hur.

Chunki ul subh nuring zuhur etdi (ko'rindi, paydo bo'ldi). O'ylakim, tiyra (qorong'u) shom (tun, kecha) jabhai hur (hur yuzli, go'zal). Sen (Ollohga murojaat) quyosh yanglig', tong mahali issiq nurlaring bilan paydo bo'lding va olamni yoritding. Hattoki, qorong'u shomlar ham oydinlashib, o'zgacha bir go'zallik paydo qildi.

Harne katmi adamda erdi nihon,

Xoh ahli jahonu xoh jahon.

Harne (hamma narsa) katmi adam (yo'qlik pardasi)da nihon (yashirin, ko'zga ko'rinmaydigan) edi. Jahon butun olam tugul, jahon ahli ham mavjud emas edi. Yer yuzidagi hamma narsa yo'qlik pardasining orqasida yashiringan edi. Bu jahon ham, undagi tirik mavjudotlar ham noma'lum edi. Yer yuzida hayot yo'q, insoniyatdan esa asar ham yo'q edi.²⁹

Borisi kiydilar libosi vujud,

Bud xaylig'a kirdi har nobud.

Borisi (barchasi) vujud (1.mavjudlik, borliq, 2.gavda, jism) libosini kiydilar. Bud (borlik, mavjudlik) xayl (guruh, to'da, to'p)iga kirdi har nobud (yo'q, yo'qlik). Yo'qlik dunyosidagi jamiki narsalar ustlariga mavjudlik libosini kiydilar. Ular yo'q edilar, endi esa ular bor. Butun koinot, undagi jonli va jonsiz predmetlar Olloh

²⁹ Алишер Навоий. МАТ.20 томлик. 10 том. Тошкент: Фан, 1991

tomonidan yaratildi. Bularning bari Ollohning marhamati va cheksiz sahovati sababli yuz berdi. Ollohning birgina “yaral” so’zi sababli o’n sakkizming olam va undagi mavjudotlar paydo bo’ldi.

Nargis ul nur birla ochti basar,

Adam uyqusidin ko’zinda asar.

Nargis (gulning bir turi) ul nur (Ollohning nuri) bilan basar (ko’z) ochdi. Ko’zida adam (yo’q, yo’qlik) uyqusidan asar (alamat, nishon, belgi). Yuqoridagi baytlarning birida tong chog’i Ollohning mehri, xuddi quyosh nuridek olamni yoritishi aytilgan edi. O’sha nur yer yuzidagi butun mavjudotga tiriklik havosini ulashadi. Nargis guli ham shu nur sababli ko’zini ochdi. Uning ko’zlarida yo’qlik uyqusidan nishon bor edi. Nur sababli bu nishon yo’qoldi.

Turrasig’a to’kub binafsha abir,

Atri etti dimog’ig’a ta’sir.

Turra (kokil, o’rilgan jingalak soch)siga to’kib, binafsha (1. Sapsar rang 2. Shu rangda ochiladigan xushbo’y chechak-gul) abir (xushbo’y modda, anbar). Atri (hidi,ifori) dimog’ (burun)iga ta’sir etti. Ushbu bayt mantiqan yuqoridagi baytning uzviy davomidir. Gullarning o’rilgan jingalak sochlariga to’kilgan sapsar rang xushbo’y anbarning ifori ularning burniga ta’sir etti. Bularning bari bahor shamolining ishidir. Ushbu baytda gullar jonlantirilib, tashxis san’ati qo’llanilmoqda.

Suv yaqosig’akim yog’ib muldur,

Bu yaqo tugmasi bo’lub ul dur.

Suvning yoqasiga mul (may va sharob)lar yog’di. Bu yoqaning tugmasi ul dur bo’ldi. Suv oqadigan ariqlar va anhorlarning yoqasiga may va sharob yog’di. Ul dur (yuqoridagi baytda keltirilgan bahorgi shudring, shabnamlar nazarda tutilgan) bu yoqa uchun tugma vazifasini bajardi. Bilamizki, ayni bahor faslida yog’ingarchilik ko’p bo’ladi. Ariqlar, ko’llarning suvi o’z qirg’ogidan chiqib ketgudek hayqirib

oqadi. Baytda ariqlarning qirg'og'i kiyimning yoqasiga o'xshatilgan va tashbeh san'ati qo'llanilgan.

Qilgali jilva gulruxi bo'ston,

Sun' mashshotasi yasab doston.

Gulrux (gulyuzli, go'zal, chehrasi issiq) bo'ston (bog', gulzor) jilva qilmoq (o'zni go'zal va porloq ko'rsatish, noz va g'amza qilmoq). Sun' (yasash, yaratish) mashshota (qiz va kelinlarning sochlarini tarab, bezantiruvchi xotin, pardozchi)si doston (katta hikoya, doston, ertak) yasaydi. Baytda shoh Bahrom haramidagi qizlar bog'dagi go'zal gullarga o'xshatilgan. Qizlar xuddi bog'dagi gullar kabi noz va g'amza qiladi, ko'zga porloq yulduzdek ko'rinadi. Qizlarga oro beruvchi pardozchi ayol esa ularning go'zalligi haqida ajoyib bir doston yozadi. Ya'ni ularning har birini pariga aylantiradi.

Yasadi beqiyosu andoza,

Sabzadin vusma, loladin g'oza.

Yasadi beqiyos (qiyosi yo'q, tengi yo'q) andoza (qolip, andoza). Sabza (maysa, yashillik, yashil rang)dan vusma (o'sma =o'simlik siqiladigan yashil suv), lola (tog' yonbag'irlarida uchraydigan qizil gul)dan g'oza (yuzga surtiladigan qizil modda, elik). Qizlarni bezantiruvchi ayol ularning har biridan o'zgacha andoza yasadi. Ularning qiyofasi bir-birini takrorlamas edi. Qizlarning qoshlarida o'sma, yuzlarida qizil elik yaltirardi.

Ravshan aylab zuloldin ko'zgu,

Tutti gul chehrasin anga o'tru.

Ravshan aylamoq (ayon bo'lmoq, oshkor bo'lmoq) zulol (tip-tiniq va shirin sovuq suv) dan ko'zgu. Tutti gul chehrasini unga o'tru (1.qarshi, ro'para 2. ma'shuqa). O'z go'zalligini ko'rmoqchi bo'lgan ma'shuqa go'zal chehrasini ko'zguga, ya'ni tiniq zilolsuvga tutdi. Uning nazdida faqatgina tiniq suv xolis ko'zgu edi va uning go'zalligini nuqsonsiz ko'rsatardi.

Ul qilib jilva bu bo'lub shaydo,

Ishq bo'ldi jahon aro paydo.

Ul jilva qilmoq (o'zni go'zal va porloq suratda ko'rsatish), bu esa unga shaydo bo'lmoq (muhabbat bog'lamoq, mehr qo'ymoq). Natijada jahon (olam, dunyo) ichra ishq paydo bo'ldi. Gul o'z go'zalligini ko'z-ko'z qilishda davom etdi, bulbul esa brogan sari unga mehr qo'ya boshladi. Oxir oqibat jahonda ishq degan sehrli tuyg'u paydo bo'ldi.

Bo'ldi oshiq biri, biri ma'shuq,

Yo'qki ul otashinu bu mahruq.

Ulardan (gul va bulbul nazarda tutilgan) biri oshiq, biri ma'shuq bo'ldi. Yo'q ularni oshiq ma'shuq desak, bu ular uchun berilgan oddiy ta'rif bo'lib qoladi. Ularning biri otashin (1.o'tli, alangali 2.o'tday qizil), ikkinchisi esa mahruq (yongan, kuygan) edi. Gul go'zal ma'shuqa, bulbul esa unga oshiqu beqaror bo'ldi. Yo'q ularni oshiq ma'shuq desak, ozlik qiladi. Ularning biri o'tday qizil, kuydiruvchi olov bo'lsa, ikkinchisi shu olovda kuyganparvonadir. Baytda ruju san'atidan mohirona foydalanilgan.

Ham anga o'rtamak buyurg'on ishq,

Ham munung jonig'a o't o'rg'on ishq.

Ham anga (gul nazarda tutilmoqda) hajrida o'rtashni buyurgan ham ishq (Ollohga bo'lgan ilohiy ishq). Ham muning (bulbul nazarda tutilgan) joniga o't o'rg'on (o't qo'ygan, o'tda yoqqan) ishqdir. Gulga go'zallikni berib, bulbulni o'z ishqida o'rtashga majbur qilgan ham, bulbulni muhabbat olovida ayovsiz yoqqan ham ishqdir. Bu ilohiy ishq. Ya'ni bandaning Ollohga bo'lgan muhabbatidir.

Keldi bu ikki sarbasar nobud,

Senki mavjud, balki ayni vujud.

Keldi bu ikki (gul va bulbul nazarda tutilgan) sarbasar (butunlay, boshdan-oyoq) nobud (yo'q, yo'qlik). Senki (Ollohga murojaat) mavjud, balki ayn (1.ko'z 2. mohiyat) vujud (1.mavjudlik, borliq 2.gavda, jism). Endi bu ikki obraz (gul va bulbul)ning asardan butunlay chiqib ketish vaqti yetib keldi, chunki endi ular ishtirokidagi izohlar shart emas. Sen (Ollohga murojaat) borsan, senga olib boradigan mohiyat mavjud. Shunday ekan, seni oshkora madh etaman.

Ishq sensen dog'iyu oshiqsen,

Yana ma'shuqluqqa loyiqsen.

Ishq sensan (Ollohga murojaat), tag'in oshiq ham o'zingsan. Bu ham yetmagandek ma'shuqlikka loyiq ham o'zingsan. Bu baytda to'laligicha Ollohga murojaat qilingan. Ya'ni ishqni paydo qilib, oshqlik va ma'shuqlikni yaratgan ham o'zingsan va bunga faqat sening o'zing loyiqsan.

Ayni ma'shuqluqda jilvai zot,

O'zini ko'rgali tilab mir'ot.

Ma'shuqlikda ayni jilva (1.yaltiroqlik 2. o'zni go'zal va porloq suratda ko'rsatish) zot (1. shaxs 2. mohiyat, bir narsaning asli). O'zini ko'rish uchun mir'ot (oyna, ko'zgu) tilaydi. Ma'shuqlikda ham ayni o'zini jilvalantira oladigan shaxs o'zingsan. O'z husningni ko'rish uchun har dam ko'zgu so'raysan.

Husnunga har dam o'zga surat o'lub,

Ko'zgu takrori ham zarurat o'lub.

Husning har dam o'zgacha surat (1. shakl, rasm 2. tashqi ko'rinish) da namoyon bo'ladi. Shuning uchun senga ko'zgu takrori zarurdir. Baytda sening (Ollohga murojaat) husning har doim o'zgacha tashqi ko'rinishda namoyon bo'ladi. Sen istagan qiyofangga kira olasan. Turli qiyofada, turli vaziyatlarda bandalaringni sinab ko'rasan. Shuning uchun senga takror-takror ko'zguga qarash zarur.

Necha husn ichra jilva zohir anga,

Ko'zguluk aylabon mazohir anga.

Necha husn (go'zallik, chiroy) ichra jilva (1.yaltiroqlik 2. o'zni go'zal va porloq suratda ko'rsatish) zohir (yuzaga chiqarish, paydo qilish) anga (Oллоhga). Buning uchun mazohir (paydo bo'lish, ko'rinish) anga ko'zgu vazifasini bajaradi. Necha go'zalliklar ichra porlab, yaltirab ko'rinish faqatgina Oллоhga xos. Turli xil qiyofalar, ko'rinishlar uning uchun ko'zgudir. U hech qachon bir qiyofada ikki bor namoyon bo'lmaydi.

Husnung aylab o'kush sifat ichra,

Har zamon jilva koinot ichra.

Husn (go'zallik, chiroy)ing aylab o'kush (ko'p) sifat (sifatlar, xususiyatlar) ichra. Har zamon jilva (1.yaltiroqlik 2. o'zni go'zal va porloq suratda ko'rsatish) koinot (butun borliq, olam) ichra. Sening (Oллоhga murojaat) go'zalligingda ko'p sifat, xususiyat bor va bu go'zalliging butun borliq ichra har zamon porloq suratda namoyon bo'ladi.

Balki mazhar libosida yoshunub,

O'z jamoli zuhurig'a ovunub.

Balki mazhar (1. paydo bo'lish, ko'rinish) libosida yoshinib, o'z jamol (1.husn,go'zallik 2.maj:yuz, bet)i zuhur (paydo bo'lish, ko'rinish)iga ovunib. Ushbu bayt ham yuqoridagi baytlarning mantiqiy davomidir. Ya'ni Oллоh qaysi libos (qiyofa)da yashirinishni biladi. U qayerda paydo bo'lishidan qat'iy nazar o'sha vaziyatga mos, hech kim uni taniy olmaydigan qiyofada namoyon bo'ladi.

O'zunga o'zni dardnok aylab,

O'zni o'z husnunga-o'q halok aylab.

O'zingga o'zingni dardnok (dardli, xasta) qilib, o'zingni o'z husningni o'q qilib, o'zingni halok etasan. Baytda Oллоhga murojaat qilingan. O'zingni o'zing xasta qilib, o'z go'zalligingni o'zingga o'q qilasan va o'zingni unga nishon etasan oxir-oqibat esa halok bo'lasan.

Kulin aylab fano yeli ma'dum

Kam, asar andin o'lmayin ma'lum.

Kulin fano (1.yo'q bo'lish, o'lish 2.o'zlikni yo'qotish) yeli ma'dum (yo'q, yo'qlik) ayladi. Undan asar (nishon, belgi,iz) hech qachon ma'lum bo'lmaydi. Ushbu bayt mantiqan yuqoridagi baytning davomidir. Ya'ni ularning (Ollohning husniga boqmoqchi bo'lib, olovda kuyganlar)ning kulini yo'qlik shamoli uchurib yuboradi. Hech kim hech qachon bu hodisadan biror belgi, nishon topolmaydi.

Sen senu sendi o'zga xud nima yo'q,

Gar ko'runsa sen o'lg'ung, ul nima yo'q.

Sen bu sensan. Sendan o'zga xud (1.albatta, haqiqatdan 2.yolg'iz, birgina) hech nima yo'q. sen yagonasan, butun koinotda sening o'rningni bosa oladigan hech qanday mavjudot yo'q. Agar biror narsa sen bo'lishga harakat qilsa, uning o'limi muqarrardir. O'zing yaratguvchisan, har ishga qodirsan.

Hech nima yo'q sen eding mavjud,

Ham sen o'lg'ung bori bo'lub nobud.

Hech nima yo'q edi, ammo sen o'shanda ham mavjud eding, bor eding. Agar senga biror narsa bo'lsa, sen yaratgan barcha narsa nobud (yo'q, yo'qlik) bo'ladi. Osmonu falaklar, sayyoralar, daryo dengizlar, tog'lar ularning bag'rida kun kechiradigan milliardlab mavjudotlar yo'q bo'lgan vaqtda ham sen (Ollohga murojaat) bor eding. Ularning barini yo'qdan bor etgan ham yolg'iz o'zingsan. Sen borliging uchungina ular ham bor. Mabodo, sen bo'lmasang ular ham nobud bo'lishadi.

Vasfi zotingda sabt harfi qidam,

Yo'q vujudung yuziga gardi adam.

Navoiy asardagi hamd qismning so'nggi baytida ham yana bir bor Ollohga murojaat qiladi. Sening zot (1.sohib,shaxs 2. mohiyat, asl ko'rinish)ingni vasf etishda sabt (1.mahkam turish 2. yozish, qayd etish) harf (1. tovushning yozuvdagi shakli 2.belgi,

nishona 3.ko'ch:so'z)i qidam (qadimiy). Vujud (1. mavjudlik, borliq 2.jism, gavda)ing yuziga gardi adam (yo'qlik to'zoni) yo'q. sening (Ollohga murojaat) shaxsingni, asl ko'rinishingni madh etish qadim zamonlardan buyon mavjud. Bu ishda men birinchisi ham, oxirgisi ham emasman. Sening asl qiyofangni ko'rish baxtiga hech kim muyassar bo'lmagan. Ammo shu narsa aniqki, sening yuzingda yo'qlik to'zonidan asar ham yo'q. Sen abadiy mavjudsan.Ushbu dostondagi hamd qism ham Ollohning maqtovi bilan yakunlanadi.

2.5. “Saddi Iskandariy”dagi hamd boblarning g’oyaviy-badiiy tahlili

Navoiy “Xamsa” asarining so’nggi dostoni bo’lmish “Saddi Iskandariy” dostonini ham hamd, Ollohning maqtovi bilan boshlagan:

Xudoyo, musallam xudoliq sanga,

Birov shahki, da’bi gadoliq sanga.

Xudoyo (Olloh, tangriga murojaat), xudoliq (egalik, xo’jayinlik) senga musallam (inkor yoki qarshilik qilinmay ma’qullangan). Birov shoh bo’lsa, senga gadolik da’b (odat, xislat)i xosdir. Ey Olloh yer yuzidagi jamiki mavjudotlarning yagona egasi yolg’iz o’zingsan. Bu inkor etib bo’lmaydigan haqiqatdir. Birovlar ojiz bo’lishiga qaramay, o’zini shoh deb biladi, biroq sen shunday buyuklik va cheksiz qudrat egasisan, ammo o’zingga gadolik martabasini odat qilib olgansan.³⁰ Baytda (shoh va gado) so’zlari tazod san’atini hosil qilgan.

Xudovandi bemislu monandsen,

Xudovandlarga xudovandsen.

Xudovand (1.ega, xo’jayin 2. hokim, hukmron) bemislu monand (o’xshash)san. Xudovand (1.ega, xo’jayin 2.hokim, hukmron)larga xudovand (1.ega, xo’jayin 2.hokim, hukmron)san. Sening (Ollohga murojaat) har bir xislating hokim, hukmdorlarga xos. Sen ularga juda o’xshaysan. Ammo buning o’zi sening ta’rifingga ozlik qiladi. Sen jahon hukmdorlarining ham hukmdoridirsan. Barcha hokimlar senga itoat qiladilar. Chunki, ularga bunday ulug’ martabani o’zing bergansan.

³⁰Алишер Навоий. МАТ.20 томлик. 11том. Тошкент: Фан, 1991

Zabardastlar zerdasting sening,

Biyiklar kelib borcha pasting sening.

Zabardast (1.qo'li yuqori, zo'r 2. pahlavon)lar sening (Oллоhga murojaat) zerdasting (bo'ysungan, tobe, qaram). Biyik (buyuk)larning bari sen oldingda pastdirlar. Yer yuzidagi jamiki zo'rlar, pahlavonlar ham sening qo'l ostingdadir, senga bo'ysunadilar. O'zini buyukman deb hisoblagan botirlarning barchasi sendan pastda, quyida turadilar. Pahlavonlarga pahlavonlikni, buyuklarga buyuklikni o'zing ato qilding. Ularning bari sening tobeligingdadir. Sen butun olamga hukmdorsan.³¹ Baytdagi (biyik, past) so'zlari tazod san'atini hosil qilgan.

Sanki ko'rguzub mavj daryoyi jud,

Sen aylab ayon korgohi vujud.

Sanki (Oллоhga murojaat) dayoyi mavj (to'lqin) larga jud (1.in'om, ehson 2.saxiylik, qo'li ochiqlik) ko'rguzding. Sen (Oллоhga murojaat) korgoh (1.ishxona 2.maj: dunyo)ni vujud (1.mavjudlik, borliq 2.gavda, jism)ligini ayon aylading. Sen (Oллоhga murojaat) yaratgan har bir narsangga ma'lum bir xususiyatni tuhfa qilding. Masalan: daryo suvlariga to'lqinlanib, hayqirib, pishqirib oqishdek go'zallikni in'om qilding. Yana sen (Oллоhga murojaat) dunyoning mavjudligini barchaga oshkor qilding. Sening himmating cheksizdir. Har bir yaratig'ni yaratishdan ma'lum bir maqsad ko'zlagansan.

Vujud ahlining komi judung bila,

Kelib jud qoyim vujudung bila.

Vujud (1.mavjudlik, borliq 2.gavda, jism) ahlining kom (tilak, istak, maqsad)i jud (1.in'om, ehson 2.saxiylik, qo'li ochiqlik) bilan. Kelib jud (1.in'om, ehson 2.saxiylik, qo'li ochiqlik) qoyim (mos, to'g'ri, baravar) vujud (1.mavjudlik, borliq 2.gavda, jism)ing bila. Borliq ahli (yer yuzidagi jamiki mavjudotlar)ning barcha tilak, istaklari sening ehsonlaring sababli amalga oshdi. Ular sendan nimani istashsa, o'shani

³¹ Алишер Навоий. МАТ.20 томлик. 11том. Тошкент: Фан, 1991

berding. Bunday saxiylik, qo'li ochiqlik faqatgina sening jismingga mosdir, bu faqatgina sening qo'lingdan keladi.

Vujudung qachon qilsa zohir qidam,

Bo'lub borcha ashyo vujudi adam.

Vujud (1.mavjudlik, borliq 2.gavda, jism)ing qachon zohir (paydo bo'lish, ko'rinish) qidam (qadimiylik) qilsa, barcha ashyo vujud (1.mavjudlik, borliq 2.gavda, jism)i adam (yo'q, yo'qlik) bo'ladi. Sening (Ollohga murojaat) jisming qachonki ko'rinish bersa, mavjud bo'lgan jamiki narsalar yo'qlik olamiga ravona bo'ladi. Shu vaqtga qadarsening jamolingni ko'rishga hech kim muyassar bo'lmagan. Chunki, hech bir mavjudotning bunga qudrati yetmaydi. Ko'rguvchi va bilguvchi yolg'iz o'zingsan.³²

Zamoneki kavnayn ma'dum edi,

Adam tangnoyida maktum edi.

Kavnayn (ikki dunyo: u dunyo, bu dunyo) zamoni ma'dum (yo'q, yo'qlik) edi. Adam (yo'q, yo'qlik) tangnoy (1.tor yo'l 2.bo'g'iz, halqum)ida maktum (berkitilgan, sir tutilgan) edi. Yer yuzida hech narsa mavjud emas edi. U dunyo (boqiy, abadiy dunyo), bu dunyo (foniyl, o'tkinchi, hozirda biz yashab turgan dunyo) ham yo'q edi. Bu ikki dunyo yo'qlik olamining tor yo'lagida berkitilgan va maxfiy holda turardi. Tiriklikdan asar ham yo'q edi.

Ne kun orazidin bor erdi nishon,

Ne tun turrasi anda anbarfishon.

Ne kun oraz (yuz, chehra)idan nishon (iz, belgi) bor edi. Ne tun turra (kokil, o'rilgan soch, sochning jingalaklangani) anda anbarfishon (xush hid, anbar sochuvchi) bor edi. Yer yuzida na kunning yorug' yuzidan nishon bor edi, na tunning anbar sochuvchi kokillaridan. Bularning barchasi mavhum edi. Baytda(kun, tun) so'zlari tazod san'atini hosil qilgan.

³²Алишер Навоий. МАТ.20 томлик. 11том. Тошкент: Фан, 1991

Sahardin falak zoli ro' toza yo'q,

Shafaqdin yuziga aning g'oza yo'q.

Sahar (kunning xo'roz qichqirig'i mahali)dan falak zoli (maj: osmon, falak) ro' (yuz, bet) toza emas. Shafaq (quyosh botish paytida ko'kda paydo bo'ladigan qizillik)dan yuziga aning g'oza (yuzga suriladigan qizil modda, elik) yo'q. Sahardan osmonning yuzi toza emas, ya'ni osmonda qora bulutlar suzib yuribdi. Quyoshning botish vaqtida paydo bo'ladigan qizillik osmonning yuzini qizartirmagan.

Ne afloku, ne muttasil anda davr,

Ne el, ne aning davridin elga javr.

Ne aflok (falak, osmon)u, ne muttasil (ketma-ket, uzluksiz) anda davr (1.aylana, tevarak 2.zamon, vaqt 3.qabat). ne el aning davridan elga javr (aziyat, zulm, jabr). Bu osmonu falaklar ketma-ket, uzluksiz o'tgan necha zamonlarni ko'rdi. Bu davrlarda necha ellar yashab, turli xil jabr zulmlarni boshidan o'tqazdi.

Ne olam diyoridin osor ham,

Ne paydo diyor ichra dayyor ham.

Ne olam diyor (1.o'lka, mamlakat 2.uy, makon)dan osor (nishonalar, belgilar) bor edi. Ne diyor (1.o'lka, mamlakat 2.uy, makon) ichida dayyor (turuvchi, yashovchi) lar bor edi. Dastlab, yer yuzidagi hech bir mamlakatdan nishon yo'q edi. Mamlakatlar tugul uning ichida yashaydigan insonlar ham yo'q edi. Bularning barini mavjud bo'lishini sen (Ollohga murojaat) xohlading va buni amalga oshirding.

Sen ul nav mavjud eding, bal vujud

Ki, budungg'a yo'q erdi nangi nabud.

Sen (Ollohga murojaat) ul nav (tur, jins) mavjud eding, bal (balki) vujud (1.borliq, mavjudlik 2.gavda, jism). Ki, bud (mavjudlik, borliq)ingga nangi nabud (yo'qlik nomusi) yo'q edi. Sen (Ollohga murojaat) allaqachon mavjud eding, balki jisming ham bordir. Sening mavjudligingga yo'qlik nomusi hech qachon yo'q edi. Ya'ni

sening borligingni hech kim inkor etolmaydi. Bor ekanligingni bilish uchun seni ko'zimiz bilan ko'rishimiz shart emas.

Ayon bo'lmayin bahri zotingg'a mavj,

Aning mavjig'a ne hazizu ne avj.

Sening (Ollohga murojaat) zot (1.sohib, shaxs 2.mohiyat, bir narsaning asli)ingga bahr (daryo, dengiz)i mavj (to'lqin)lari ayon emas. Aning (daryo, dengizlar nazarda tutilgan) mavjiga ne haziz (eng past, eng quyi) va ne avj (yuqori, cho'qqi). Bir qarasang dengiz to'lqinlari pishqirib, hayqirib qirg'og'idan toshadi, bir qarasang suv quygandek jimjit bo'lib, sokin oqadi. Ammo bularning hech qaysisini sening (Ollohga murojaat) aslingni, mohiyatingni tushunib yetishga aloqasi yo'q.

Jamolingki mehri jahontob o'lub

Xafo pardasi ichra noyob o'lub.

Jamol (yuz, chehra)ang mehr (quyosh)i jahontob (jahonni yorituvchi, qizdiruvchi) bo'lib, xafo (yashirinlik, maxfiylik) pardasi ichra noyob (juda qimmat, kam uchraydigan) bo'lib. Sening (Ollohga murojaat) chehrang jahonni yorituvchi, qizdiruvchi quyosh kabidir. Ammo chehrang maxfiy parda ichiga yashiringan. Bu pardani hech kim,hech qachon ocholmaydi.

Jamolingg'a chunkim zuhur istading,

Quyoshingg'a ifshoyi nur istading.

Chunki, jamolingga (yuz, chehra) zuhur (ko'rinish, paydobo'lish)ni istading. Quyoshingga ifshoyi nur (nur sochish)ni istading. Sen (Ollohga murojaat) jamolingni barchaga namoyon qilishni istading. Buning uchun esa quyoshni butun borliqqa nur sochuvchi qilib yaratding. Go'yoki quyosh sening yerdagi jamoling aksidir. Sen o'zingni hammaga quyoshning jamili orqali namoyon etding. Ya'ni xuddi quyosh kabi mehrli va hammani ko'rib turguvchidirsan.

Bu nav iqtizo ayladi xo'blug'

Ki, qilg'aysen izhori mahbublug'.

Bu nav (tur, jins) iqtizo aylamoq (talab qilmoq, istamoq) xo'blug' (go'zallik, husndorlik, yaxshilik). Ki, izhor (namoyon qilish, ko'rsatish)i mahbublug' (mahbublik, sevilganlik) qilgaysan. Bu jins go'zallikni talab qildi, istadi. Sen Ollohga murojaat) o'zingni mahbublik qiyofasida namoyon qilgaysan.

Chu mahbubluq amri pinhon emas

Ki, to bo'lmag'ay oshiq imkon emas.

Mahbubluq (mahbublik, sevilganlik) amri (xohish, istak, talab)i pinhon (yashirin, maxfiy) emas. Ki, oshiq bo'lmaslik imkon emas. Barchaga birdek sevimli bo'lish istagi hech kimga yashirin emas. Chunki sening (Ollohga murojaat) husningga oshiq bo'lmaslikning imkoni yo'q. Har bir yaratgan mavjudoting sening oshig'ingdir.

Chu bori husng'a ishq loyiq base,

Kerak bo'ldi husnungg'a oshiq base.

Chu husn (go'zallik, chiroy)ingga base (ko'p, juda ko'p) ishq loyiqdir. Kerak bo'ldi husn (go'zallik, chiroy)ingga base (ko'p, juda ko'p) oshiq. Sening (Ollohga murojaat) go'zalligingga jamiki yaratqlaring oshiq bo'lib, ishq muhabbat bog'ladilar. Ushbu baytda bandalarning Ollohga bo'lgan g'oyibona, ilohiy ishlari haqida gapirilmoqda. Ya'ni bandalar hech qachon Ollohni ko'rmaganlar, ammo uni yurakdan his qiladilar, unga iymon keltiradilar. Shuning uchun unga butun vujudlari bilan oshiqadirlar.

Chu bir junbush etti ayon bahri zot,

Padid o'ldi amvojdin koinot.

Bir bora bahr (daryo, dengiz) zot (1.sohib, shaxs 2.mohiyat, bir narsaning asli)ing junbush etmoq (harakat qilmoq, qo'zg'almoq). Padid (aniq, ravshan) o'ldiamvoj (mavjlar, to'lqinlar)idan koinot (butun borliq, olam). Sen (Ollohga murojaat) bir bora

harakatga kelib, ko'rinish bermoqchi eding, qiyofang mavjlaridan butun olam jar yoqasiga kelib qoldi.

Iki harf amrin qilib nuktavar,

Ayon aylading muncha dilkash suvar.

Iki harf (1. tovush 2.maj:so'z)ni nuktavar (chiroyli so'zlovchi, ma'noli javob qaytaruvchi) qilib yaratding. Bu ham yetmagandek, ularni juda dilkash (dilga yoqadigan, qalbga orom beradigan) suvar (shakl, tashqi ko'rinish)da hammaga oshkor qilding.

Kishi ko'rmamish hargiz andoq kishi

Ki, oshiqqa oshiqlik o'lg'ay ishi.

Kishi hargiz (hech qachon) andoq (bunday) kishi ko'rmagan. Chunki uning o'zi oshiqqa oshiqlik qiladi. Ushbu baytda Ollohga ishora qilinmoqda. Ya'ni insoniyat hech qachon bunday kishini ko'rmagan. Chunki insonlar orasida oshiqqa yana oshiq bo'ladiganlar uchramaydi.

Yaqin anglasam g'ayr bordur adam,

O'zung oshiqu ishqu ma'shuq ham.

Yaqindan anglasam g'ayr (o'zga, boshqa, begona) bordur adam (yo'q, yo'qlik). O'zing ishq, o'zing oshiq, o'zing ma'shuq. Bu baytda ham Ollohga murojaat qilingan. Yaqindan tushinilsa, boshq bitta yo'qlik olami bor. U yer Ollohning makoni. Boshq hech bir zot u yerda yashamaydi. Sen (Ollohga murojaat) ishq ham, oshiq ham, ma'shuq ham o'zingsan. Aynan shu misra yuqoridagi baytning mantiqiy davomidir. Oshiqqa oshiqlik qiladigan, ishqni paydo qiladigan, ma'shuq bo'ladigan ham Ollohning yolg'iz o'zidir.

Chu ma'shuqu oshiq sen o'ldung tamom,

Sanga ishqu ushshoqdin vassalom.

Chu ma'shuq ham, oshiq ham sening o'zingsan. Senga (Ollohga murojaat) ishq, ushshoq (oshiqlar, sevuvchilar)dan vassalom (bu arabcha so'z ko'pincha maktub va boshqa yozuvlar oxiriga qo'yiladi va bo'lgani shu, tamom, oxiri kabi mazmunni anglatadi). Navoiy "Saddi Iskandariy" ning so'nggi baytini ham Ollohga murojaat qilib yakunlaydi. Ya'ni orada ishqni paydo qilib, ma'shuq bo'lgan ham, ma'shuqqa oshiq bo'lgan ham o'zingsan deya³³ Navoiy "Xamsa"ning so'nggi dostoni bo'lmish "Saddi Iskandariy"ning hamd qismiga nuqta qo'yadi.

Hamd qismda keltirilgan Ollohning sifatlari, cheksiz aql zakovat egasi ekanligi bilan asarning bosh qahramoni Iskandarning harbiy yurishlarni, mamlakatni aql idrok bilan boshqarishi o'rtasida uzviy aloqadorlik mavjud.

³³ Алишер Навоий. МАТ.20 томлик. 11том. Тошкент: Фан, 1991

XULOSA

Alisher Navoiyning turkiy xalqlar ma'naviy xazinasiga qo'shgan hissasi beqiyos. Ayniqsa, turkiy-o'zbek tilida yaratilgan "Xamsa" asarini alohida e'tirof etish lozim. U zotning yaratgan shoh asarlari insoniyat ruhiy-ma'naviy dunyosi namoyandalari: Jaloliddin Rumiy, Hofiz Sheroziy, Dante, Vilyam Shekspir, Lev Tolstoylar ijod namunalari bilan bir safda turadi. Agar qiyoslasak, ba'zi o'rinlarda Alisher Navoiy asarlaridagi yuksak g'oyalarning "klassik" deya e'tirof etilgan ko'plab G'arb adiblarinikidan ustunroq ekanligiga guvoh bo'lamiz. Shu ma'noda mustaqil mamlakatimiz yoshlarini barkamol inson qilib tarbiyalashda Hazrat Navoiyning asarlari muhim ahamiyat kasb etadi. **Ta'kidlash lozimki**, Alisher Navoiyning "**Xamsa**" asari insoniyatni ruhiy poklashga, ma'nan yuksaltirishga qodir bezavol ma'naviy qudratdir. Mustaqillik sharofati bilan alloma ijodkorning asarlari keng miqyosda o'rganila boshlandi, hazrat Navoiy haqida **bir qancha yangi tadqiqotlar amalga oshirildi**. Alisher Navoiy "Xamsa"si tarkibidagi beshta dostonning hamd boblarini o'rganish asnosida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Sharq adabiyotida xamsachilik an'anasi juda qadim tarixga borib taqaladi va bu an'anaga ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy tomonidan asos solingan. Keyinchalik bu an'anani Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi zabardast shoir va mutafakkirlar munosib tarzda davom ettirganlar. Yuqorida nomlari keltirilgan ijodkorlarning "**Xamsa**" lari tarkibidagi har bir doston hamd bob bilan boshlangan. **Hamd boblarida** Ollohning maqtovi va yer yuzidagi jamiki mavjudot ollohning yaratig'i ekanligi haqidagi fikrlar keltirilgan. Xususan, Alisher Navoiy ham o'z "**Xamsa**" sini yozishga kirishishdan oldin Olloh taolodan ruhiy madad so'raydi. **Ollohni madh etib, cheksiz qudrat sohibi ekanligiga urg'u beradi.**

2. Shoir lirikasida ham hamd g'azallar mavjud. Ammo ijodkor "Xamsa" si tarkibidagi hamd boblar har bir doston syujeti bilan mutanosib tarzda yaratilgan.

3. Hazrat Alisher Navoiyning "Xamsa" asari o'zining didaktik mohiyati bilan buyuk istiqbol sari odimlayotgan istiqlol davri yoshlarini tarbiyalashda muhim manbalardan sanaladi.

4. Ijodkor "Xamsa"sining har bir dostonida hamd bob mavjud bo'lib, unda Ollohning mislsiz qudrat egasi ekanligi va yer yuzidagi har bir mavjudotni yaratishdan ma'lum bir maqsadni ko'zlagani haqida aytib o'tilgan.

5. Boshqa asarlardan farqli o'laroq, Navoiy "Xamsa" asarida katta hajmdagi hamd baytlarni keltiradi, ammo har bir asar tarkibidagi hamd boblari bir-biridan farq qiladi.

6. Hazrat Alisher Navoiy "Hayrat ul abror" dostonini "Xamsa" tarkibidagi ilk doston bo'lganligi sababli, hamd bob bilan emas, basmalayi sharif ta'rifi bilan boshlagan. Asarda basmalayi sharifdan so'ng hamd bob keltirilgan.

7. "Layli va Majnun" dostonini ham Alisher Navoiy hamd bob bilan boshlaydi. **Mazkur asarda** qanchalik mashaqqatli ish bo'lishidan qat'iy nazar, **u ezgulikka xizmat qilishi lozimligini uqtiradi.** Shuningdek, har bir ish Olloh nomi bilan boshlansa, xayrli yakun topishiga urg'u beradi. Chunki har bir ishning ibtidosi ham intihosi ham yolg'iz yaratganga ayon va havoladir.

8. Shoir "Sabbai Sayyor" dostonidagi hamd qismda Ollohning sha'niga qancha ash'oru dostonlar bitsa ham, ozlik qilishi, uning maqtovida qalami ojiz ekanligini aytib, insoniyatga so'zlash, nutq irod etish qobiliyati ham aslida Olloh tomonidan berilganligiga ishora qiladi. Dastlab yer yuzida jamiki mavjudot nihon bo'lgani, ularning bari Ollohning qudrati sababligina hayot nafasini ola boshlagani aytib o'tilgan.

9. Shoir "Xamsa"ning xotima dostoni bo'lmish "Saddi Iskandariy"ni ham hamd bob, ya'ni ollohning maqtovi bilan boshlaydi. Ey Olloh, yer yuzidagi jamiki mavjudotlarning yagona yaratuvchisi yolg'iz o'zingsan. Bu inkor etib bo'lmaydigan haqiqatdir. Ammo Olloh shu darajada buyuk va marhamatliki, **uni inson anglashi**

dushvor. Shuningdek, yer yuzidagi jamiki mavjudot Ollohning tajallisi ekanligi aytib o'tiladi. Shoir asar hamdining so'nggi baytlarida Olloh va bandalari o'rtasidagi ishqni ham Olloh istagi bilan paydo bo'lganini aytib asar hamdiga nuqta qo'yadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

I. Normativ- huquqiy hujjatlar:

1. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. -Т.:Ўзбекистон.2017.
2. Каримов И. Истиқлол ва маънавият. Т.:Ўзбекистон. 1994.
- 3.КаримовИ. Юксакмаънавиятенгилмаскуч. – Т.: Манавият, 2009.

II. Asosiy adabiyotlar: Monografiya, risola va o'quv qo'llanmalari:

- 1.А.Хайитметов А. Навоий лирикаси. – Т.: ўзфанакаднашр, 1961.
- 2.Абдуғафуров А. Буюк бешлик сабоқлари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1995.
3. Акрамов Б. Навоий шоҳбайтлари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007.

- 4.Амонова З. Ҳуруфийлик ва бадиий ижод. – Т.: “Paradigma”. 2017
- 5.Воҳидов Р. Алишер Навоий ва илоҳиёт. – Бухоро.: Бухоро, 1994.
- 6.Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. - Т.: O'zYU Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.
- 7.Жалолов Т. “Хамса” талқинлари. -Т: Ўзадабийнашр, 1960.
- 8.Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983.
- 9.Комилов Н. Маънолар оламига сафар. – Т.: Тамаддун, 2012
- 10.Муҳаммад Юсуф Муҳаммад Содик. Ҳадис ва ҳаёт. – Тошкент: Шарқ, 2011.
- 11.Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979.
- 12.Сирожиддинов Ш., Юсупова Д., Давлатов О. Навоийшунослик. – Т.: Tamaddun, 2018.
- 13.Сирожиддинов Ш., Умарова С. Ўзбек матншунослиги қирралари. – Т.: “Akademnashr” , 2015.
- 14.Султон Иззат. Навоийнинг қалб дафтари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1973.
- 15.Султон Иззат. Адабитёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 2005.
- 16.Ҳайитметов А. Навоийхонлик суҳбатлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993.
- 17.Ҳаққулов И. Занжирбанд шер қошида. – Тошкент: Юлдузча, 1989.
- 18.Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Тошкент: Шарқ, 1999.
- 19.Ҳожиаҳмедов А. Навоий арузи нафосати. – Тошкент: Фан, 2006.
- 20.Ҳожиаҳмедов А. Шеър санъатларини биласизми? - Тошкент: Шарқ, 2001.
- 21.Ҳаққулов И. Тасаввуф ва шеърят. – Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1991.

22. Ҳаққул И. Ирфон ва идрок. –Т.: Маънавият. 1998.
23. Қайумов А. “Ҳайрат ул-аброр” талқини. –Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти. 1985.
24. Қуръони Карим . Алоуддин Мансур таржимаси. – Т.: “Чўлпон”, 1992.
25. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2007.

III. Ilmiy maqolalar:

1. Арслонова А. Навоийнинг “Фарҳод ва Ширин” достонининг насрий баёнлари. Сўз санъати журнали. 2019 йил 1-сон. 69-75-бетлар.
2. Amonova Z.Q., Safarova Sh. “Layli va Majnun” dostonining hamd bobida shoir mahorati Сўз санъати халқаро журнал. Махсуссон, 2020. 168-17- betlar
ISSN 2181-9297 Doi Journal 10.26739/2181-9297
3. Амонова З.Қ., Нафетдинова З.Ш. “Ҳайратул аброр” ҳамд бобининг ўзига хос хусусиятлари. “Алишер Навоий ва ХХI аср “мавзусидаги халқаро илмий-назарий анжуман материаллари. 106-109-бетлар.

IV. Lugʻatlar:

1. Навоий асарлари учун қисқача луғат. –Т.: Фан, 1993.
2. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият луғати. - Тошкент: Янги аср авлоди, 2008.
3. Болтабоев Ҳ. Мумтоз адабиёт манбалари луғати. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2009.
4. Ҳасанов Б. Навоий асарлари учун қисқача луғат. – Тошкент: Фан, 1993.
5. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият луғати. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2008.
6. Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Тошкент: Шарқ, 1998.

V. Badiiyadabiyotlar:

1. Алишер Навоий. МАТ.20 томлик. 7 том. Тошкент: Фан, 1991.
2. Алишер Навоий. МАТ.20 томлик. 8 том. Тошкент: Фан, 1991.
3. Алишер Навоий. МАТ.20 томлик. 9 том. Тошкент: Фан, 1991.
4. Алишер Навоий. МАТ.20 томлик. 10 том. Тошкент: Фан, 1991.
5. Алишер Навоий. МАТ.20 томлик. 11 том. Тошкент: Фан, 1991.
6. Фитрат А. “Фарход ва Ширин” достони тўғрисида”. Танланган асарлар. II-жилд. – Т.: Маънавият, 2000.
7. NavoiyAlisher. Hayratul-abror (nasriybayonibilan). – Toshkent: G‘.G‘ulom, 2006.

VI. Internet saytlari:

1. www.ziyonet.uz
2. www.gov.uz
3. www.manaviyat.uz.pak.uz
4. www.infoxs.uz